

Hujjat tekshirish natijalari



Tekshiruvchi: Rashidova Madinabonu Alisher qizi (ID: 12082)
Tashkilot: Buxoro davlat universiteti
Hisobot "[AntiPlag.Uz](#)" servisi tomonidan taqdim etilgan

HUJJAT TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR

Hujjat raqami: 271257
Yuklangan vaqti: 03-01-2025 16:14:00
Dastlabki faylning nomi: Лаборатория лотинча охирги 24.docx
Hujjat nomi: Ekologiyafanidan laboratoriya mashg'ulotlari
Hujjat turi: belgilanmagan
Matndagi belgilar: 120748
Matndagi so'zlar: 14283
Gaplar soni: 2031
Matn o'lchami: 762050 kB

HISOBOT TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR

Qidirish oraliqi: ko'rsatilmagan
Qidirish modullari: eLIBRARY.RU qidiruv moduli, BMK dissertatsiyalari qidiruv moduli, ИПС Адилет qidiruv moduli, Tabobat qidiruv moduli, Модуль поиска переводных заимствований qidiruv moduli, Patentlar qidiruv moduli, Переводные заимствования по Интернету (EnRu) qidiruv moduli, Internet plus qidiruv moduli, RDK to'plami qidiruv moduli, Elektron-kutubxona tizimlari qidiruv moduli, Garant AHT qidiruv moduli, Iqtibos keltirish qidiruv moduli, Shablon iboralar qidiruv moduli, СПС Гарант: нормативно-правовая документация qidiruv moduli, IEEE qidiruv moduli, Коллекция НБУ qidiruv moduli, Перефразирования по СПС ГАРАНТ: аналитика qidiruv moduli, Переводные заимствования по коллекции Гарант: аналитика qidiruv moduli, Перефразирования по Интернету (EN) qidiruv moduli, Публикации eLIBRARY (переводы и перефразирования) qidiruv moduli, СМИ России и СНГ qidiruv moduli, Перефразированные заимствования по коллекции Интернет в русском сегменте qidiruv moduli, Перефразированные заимствования по коллекции Интернет в английском сегменте qidiruv moduli, Кольцо вузов qidiruv moduli, Собственная коллекция компании qidiruv moduli, Search module INTERNET PLUS qidiruv moduli, Institutes Unity collection (cross language search and paraphrases) qidiruv moduli, Search module of IEEE paraphrases qidiruv moduli, IEEE Cross language qidiruv moduli, Cross language search qidiruv moduli

O'ZLASHTIRIB OLISHLAR
0.2%

O'Z-ZIDAN IQTIBOS KELITIRISHLAR
0%

IQTIBOS KELITIRISHLAR
0%

ORIGINALLIK
99.8%

O'zlashtirib olish — topilgan barcha matnli kesishmalar ulushi, tizim hujjatning umumiy hajmiga nisbatan iqtibos keltirishga kiritganlaridan tashqari.
O'z-o'zidan iqtibos keltirishlar — tekshirilayotgan hujjatdagi muallifi yoki hammuallifi tekshirilayotgan hujjatning muallifi bo'lgan manba matni fragmenti bilan mos tushuvchi yoki deyarli mos tushuvchi matn fragmentlarining hujjatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi.
Iqtibos keltirish — muallifniki bo'lmagan, biroq tizim ulardan foydalanishni to'g'ri deb hisoblagan matnli kesishmalarining hujjatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi. Bunga GOST bo'yicha qilingan iqtiboslar: umumfoydalanuvchi ifodalar; me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plamidan olingan manbalarda topilgan matn fragmentlari kiradi.
Matnli kesishma — tekshirilayotgan hujjatdagi manba matni fragmenti bilan ustma-ust yoki deyarli ustma-ust tushuvchi matn fragmenti.
Manba — tizimda indekslangan va tekshirish o'tkaziluvchi qidirish modulida mavjud bo'lgan hujjat.
Originallik — tekshirilayotgan hujjat matnidagi tekshiruv borgan birorta ham manbada topilmagan fragmentlarning hujjatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi.
O'zlashtirib olishlar, o'z-o'zidan iqtibos keltirishlar, iqtibos keltirishlar va originallik alohida ko'rsatkichlar hisoblanadi va jami bo'lib 100%, ni beradi, bu esa butun tekshirilayotgan hujjat matniga mos keladi.
E'tiboringizni tizim tekshirilayotgan hujjatning tizimda indekslangan matnli manbalar bilan matnli kesishmalarni topishiga qaratamiz. Bunda tizim yordamchi vosita hisoblanadi, o'zlashtirib olishlar yoki iqtibos keltirishlarning to'g'riligi va o'rinaligini hamda tekshirilayotgan hujjat matnli fragmentlarining muallifi kimligini aniqlash tekshiruvchining vakolatida qoladi.

№	Hisobotdagi ulushi	Manba	Qidirish moduli
[01]	0.2%	СПИСОК ВИДОВ 4	Institutes Unity collection (cross language search and paraphrases) qidiruv moduli
[02]	0%		Iqtibos keltirish qidiruv moduli

X.R.ADIZOVA

**EKOLOGIYADAN FANIDAN LABORATORIYA
MASHG'ULOTLARI**

BUXORO 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVASIYALAR VAZIRLIGI**

**EKOLOGIYADAN FANIDAN LABORATORIYA
MASHG'ULOTLARI**

60711000– Muqobil energiya manbalari (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun

BUXORO 2025

Qo'llanmada Ekologiya fani bo'yicha o'tkaziladigan laboratoriya ishlari uchun tuzilgan bo'lib, unda 19 ta laboratoriya mashg'ulotiga doir izoh berilgan. Laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun kerakli asbob va reaktivlar, kimyoviy va biologik preparatlar, ishni bajarish tartibi va mashg'ulotlar davomida olingan natijalarni jamlash hamda tahlil qilish uchun jadvallar keltirilgan. Shuningdek, qo'llanma sodsa, ravon yozilgan bo'lib, laboratoriya mashg'ulotlarining bajarish tartibi, bajariladigan topshiriqlar aniq bayon qilingan.

O'quv qo'llanma universitetning 60711000– Muqobil energiya manbalari (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan maktab, litsey biologiya o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Posobie prednaznachenno dlya laboratornykh rabot v oblasti ekologii i soderjit poyasneniya k 19 laboratornym zadaniyam. Predstavleny instrumenty i reaktivы, ximicheskie i biologicheskie preparaty, poryadok raboty i tablitsy dlya obobshcheniya i analiza rezultatov, poluchennykh v xode obucheniya. Takje posobie napisano prostym i beglym yazykom, chetko opisan poryadok vypolneniya laboratornykh zanyatiy i zadachi, kotorye neobходимо vypolnit.

Uchebnoe posobie prednaznachenno dlya studentov profilya universiteta 60711000-Alternativnye istochniki energii (po vidam) i mojet byt ispolzovano uchitelyami biologii shkol i litseev.

The manual is intended for laboratory work in the field of ecology and contains explanations for 19 laboratory tasks. Instruments and reagents, chemical and biological preparations, operating procedures and tables for summarizing and analyzing the results obtained during training are presented. Also, the manual is written in simple and fluent language, the procedure for performing laboratory exercises and the tasks that need to be completed are clearly described.

The textbook is intended for students of the university profile 60711000-Alternative energy sources (by type) and can be used by biology teachers in schools and lyceums

Taqrizchi

Buxoro davlat universiteti Biologiya
kafedrasi professori b.f.d.A.E.Xolliev

SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9-dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish" to'g'risidagi qonuniga asosan Respublika ta'lim muassasalarining barcha yo'nalishlarida ekologiya fanining o'qitilishi majburiy ekanligi ta'kidlanadi. Ekologik ta'limning bosh mezonini aholining barcha qatlamlarida, jumladan oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda atrof-muhitni asrash, undan foydalanish me'yorlari, tabiat komponentlariga, uning har bir voqeligiga ongli munosabatda bo'lish tuyg'ularini shakllantirishdan iborat. Talabalar mavjud ekologik muammolarni oldindan ko'ra bilishlari va unga ilmiy yondoshgan holda muammolarni echishlari lozim. Bu borada amaliy mashg'ulotlar yoki laboratoriya mashg'ulotlarining ahamiyati katta.

Ammo, bugungi kunda Respublikamizning bir qator oliy o'quv yurtlarida ekologiya fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkillashtirish va uni o'tkazishdaba'zi muammolar mavjudligini ta'kidlash lozim. Bu ko'p hollarda laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish tartibiga doir o'quv qo'llanmalarining etarli emasligi bilan izohlanadi. Shu nuqtai nazardan tayyorlangan mazkur o'quv-uslubiy qo'llanmada (mahalliy materiallar asosida) talabalarining auditoriyada olgan nazariy bilimlarini laboratoriyada bajarib ko'rishlari uchun yo'llanmalar beriladi.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari barcha yo'nalish va ixtisosliklari talabalarida ekologiya kursini o'qitishning samaradorligini oshirish, ekologiya fanidan olingan bilimlarni mustahkamlash va ijodiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, o'quv-uslubiy qo'llanmadan shuningdek maxsus kasb hunar kolejlari, akademik litsey va maktab o'quvchilari, hamda tabiatni muhofaza qilish muassasalarining laboratoriya xodimlari ham foydalanishi mumkin. O'quv qo'llanmada ishni olib borish uchun uslubiy ko'rsatma, ishning bajarish tartibi, kerakli jihozlar, shuningdek, bilimlarni tekshirish va nazorat qilish uchun savollar berilgan.

1-LABOROTORIYA MASHG'ULOTI

O'SIMLIK VA HAYVON HUYAYRASINI O'RGANISH

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. Tirik organizmlarning asosiy massasini hujayralar tashkil etadi. Hujayra hayotning hamma asosiy xususiyatlarini o'zida namoyon qiluvchi eng kichik elementar tuzilmadir. Hujayralar tuzilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: prokariot hujayralar va eukariot hujayralar.

Prokariot (yunoncha **pro-** oldin, **karion-** yadro so'zlaridan olingan) hujayralar eng oddiy tuzilishdagi, qadimiy organizmlardir. Ular yerda hayot rivojlanishining eng dastlabki bosqichlarida paydo bo'lib hozirgi davrgacha saqlanib qolingan. Bularga bakteriyalar, ko'k yashil suvo'tlari sianobakteriyalar kiradi.

Bakteriyalardan biotexnologiyalarda, geninjeneriyada keng foydalanilmoqda. Bakteriyalardan spirt, sirka kislota, har xil antibiotiklar, fermentlar, biologic aktiv moddalar, oziqabop oqsillar, dori- darmonlar, garmonlar olishda foydalanilmoqda.

Eukariotlarga bir hujayrali suv o'tlari va soda hayvonlardan tortib, yuqori tuzilgan gullu o'simliklar, murakkab hayvonlar va odamlar kiradi. Eukariot hujayralar prokariot hujayralarga qaraganda murakkab va xilma-xil tuzilgan. Ularda haqiqiy yadro va organiodlar mavjud. Eukariot yunoncha "**eu**"-haqiqiy, yaxshi, **karion-** yadro so'zlaridan olingan. Hujayralar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan 3 ta tarkibiy qismdan tashkil topgan.

1. Hujayra qobig'i;
2. Stoplazma;
3. Yadro;

Jihozlar: mikroskoplar, skal'pel, tomizgichlar, stakanda toza suv, pintset, preporoval nina, buyum oynalari, qoplagich oynalar, mox, siyohga bo'yalgan baqa terisining epiteliysi.

Ishning borishi: Buyum oynasi olinib, o'rtasidagi tomizgich yordamida 1 tomchi suv tomiziladi, so'ngra moxning birta yashil bargi pintset bilan olinib, buyum oynasidagi suv tomchisiga joylashtiriladi va qoplagich oyna bilan yopiladi. Tayyorlangan mikropreparat mikroskopning oldin kichik, so'ngra katta ob'ektivida o'rganiladi. Mikropreparatda hujayraning yupqa, rangsiz po'sti, sitoplazmasi va bir necha xloroplastlari, yadrosi ko'rinadi.

Hayvon hujayrasini o'rganish. Baqa terisining epiteliy pardasini olish uchun suvli shisha idishda baqa joylashtiriladi, so'ngra shisha idishning og'zi marli bilan berkitiladi va u suvda 1-2 kun shu holda saqlanadi. Idishdagi suv baqani ko'mar-ko'mmas darajada bo'lsin. Shunda suv yuzida yupqa parda parchalari hosil bo'ladi. Uni Petri likopchasiga ko'chirib, hujayra yadrosi ko'rinishi uchun binafsha rang siyoh bilan bo'yaladi. Och binafsha rangga bo'yalgan baqa terisining epiteliy to'qima pardasi idishdagi suv ichida turgan holda bir necha bo'lakchalarga ajratiladi. Ulardan biri pinset yoki preporoval nina uchi bilan buyum oynasiga qo'yiladi, so'ngra buklangan joylari to'g'rilanib, usti qoplagich oyna bilan yopiladi. Preparat mikroskop ostida qaralganda ko'p qirrali zich joylashgan yassi hujayralar, ularning pardasi, sitoplazmasi, yadrosi ko'rinadi.

Bilimlarni tekshirish uchun savollar:

1. Prokariot organizmlarga nimalar kiradi?
2. Eukariotlarning prokariotlardan farqini ayting?
3. Hujayra qobig'ining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Golji apparati bilan endoplazmatik to'r orasidagi bog'lanishni tushuntirib bering?
5. Lizosomalarning tuzilishi va funksiyalarini ayting?
6. Mitoxondriya va plastidalarning tuzilishi hamda funksiyalarida o'xshashlik va farqlar borligini tushuntirib bering?
7. O'simlik hujayrasida moddalar almashinuvi hayvon hujayrasidagi moddalar almashinuvidan qanday farqlanadi?

2- LABORATORIYA MASHG'ULOTI

O'SIMLIK HUJAYRASIGA YUQORI HARORATNING TA'SIRINI ANIQLASH. HUJAYRANING ISSIQLIKKA CHIDAMLILIGI.

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. Hujayra – organizmlarning asosiy tuzulish va funksional birligi bo'lib, u har qanday moslashishlarning amalga oshishida ishtirok etadi. V.YA.Aleksandrov temperatura omiliga hujayra quyidagi ikki xil ko'rinishda moslashishini ko'rsatib o'tadi; tug'ma–irsiy moslashish, yani genotipik vat ashqi temperaturaning o'zgarishiga bevosita javob tariqasidagi fenotipik moslashish. V.Y.Aleksandrov o'simlik to'qimalarining issiqlikka chidamliligini aniqlashda hujayra xususiyatlaridan foydalanish kerakligini ta'kidlaydi. U bu borada sitoplazma harakatining to'xtashi, hujayraning plazmoliz xususiyatini yo'qotishi, xloroplastlarning flyuorostsentsiya xususiyatining o'zgarishi, hujayradan antotsian pigmentining ajralib chiqishi kabi bir necha usullarni tavsiya etadi. Buning uchun o'simlik barglaridagi epiderma to'qimasi eng qulay obektdir. Ushbu qoplovchi to'qima hujayralari tirik bo'lib, undan tayyorlangan bo'lakchalar Keller usulida yoritilgan mikroskop yordamida kuzatiladi.

Material va jihozlar. O'simlik barglari, mikroskop, thermostat yoki termos, shpris, KNO_3 ning turli konsentratsiyalaridagi eritmalari, shisha idishlar, buyum va qoplagich oynalar, tomizgich, pinset, lezviya, mikroskop, rezina, taglik, nina, ip, sekundomer.

Ishni bajarish tartibi. Hovli yoki xonada o'suvchi biror o'simlik turning barglarini olib suvli stakanga solib qo'yiladi, so'ngra barglar rezina taglikka qo'yib o'rta tomirni lezviya yordamida olib tashlab, ulardan turli shakllarda bo'lakchalar tayyorlanadi. Bo'lakchalar (3 tadan) ipli ninalarning biriga o'tkaziladi. Bo'lakchalar termostatlar yoki oddiy termoslarda 5 daqiqa davomida qizdiriladi. Termoslarga ma'lum darajada isitilgan suv solinadi. Termoslar $0,1^\circ\text{C}$ aniqlikda ishlaydigan termometr o'tkazilgan probka bilan yopiladi. Bo'lakchalarni qizdirish $0,5^\circ\text{C}$ darajada oshirib boriladi. qizdirilgan barg bo'lakchalari shpris yordamida KNO_3 eritmasi (plazmolitik) bilan infiltratsiya qilinadi.

Infiltratsiya qilingan barg bo'lakchalari 10-20 daqiqa davomida KNO_3 ning ish eritmasida ushlab turiladi. So'ngra, mikroskop ostida barg bo'lakchalaridagi hujayralarning plazmoliz xususiyatini yo'qotishi kuzatiladi. Yuqori haroratda chidamlilik chegarasining mezoni sifatida bo'lakchalar 5

daqiqa qizdirilgandan so'ng kamida 10 ta hujayrada plazmoliz hodisasi sodir bo'ladi.

KNO₃ molyar eritmasining 20°C darajadagi osmotik bosimi

1- Jadval

1 l dagi konsentratsiya mg.	Osmotik bosim (atm. hisobida)	1 l konsentratsiya , mg.	Osmotic bosim (atm. hisobida)
0,1	4,3	1,1	40,4
0,2	8,3	1,2	43,5
0,3	12,3	1,3	46,5
0,4	16,1	1,4	49,4
0,5	19,8	1,5	52,4
0,6	23,4	1,6	55,3
0,7	27,0	1,7	58,2
0,8	30,5	1,8	61,1
0,9	33,9	1,9	64,0
1,0	37,2	2,0	66,9

2- mashg'ulotga ilova

1. Hujayralarning osmotik bosimini aniqlash

Hujayraning osmotik bosimi plazmolitik usul bilan aniqlanadi. Ma'lumki, plazmolitik to'qimalarda plazmoliz boshlanishi uchun zarur bo'lgan konsentratsiya hujayralarining o'rtacha osmotik bosimiga to'g'ri keladi. Izotonik konsentratsiya asosida hujayraning osmotik bosimini quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P = \frac{RT}{V} i \text{ yoki } P = RTiC \quad \text{bunda}$$

P – aniqlanishi kerak bo'lgan osmotik bosim;

R – gaz konstantasi (0,0821);

T – absolyut temperature (273+1°t);

V – litr hisobidagi hajmi (aniqlangan izotonik eritma konsentratsiyasiga teng miqdordagi modda eritmasining miqdori);

i – izotonik koeffitsient;

C – molyar konsentratsiya;

Hujayralarning osmotik bosimini aniqlash uchun KNO₃ eritmasining 0,1 mg dan 2 mg gacha (bir-biridan 0,1 mg ga farq qiluvchi) eritmalar tayyorlanadi.

Har bir eritmaga infiltratsiya qilingan barg bo'lakchalari 10-20 daqiqa solib qo'yilib, keyinchalik mikroskop ostida kuzatib bo'riladi. Ushbu jarayon barg bo'lakchalaridagi hujayralarda burchakli plazmoliz boshlangunga qadar takrorlanadi. Plazmolizning barg bo'lakchalarida boshlanishi izotonik konsentratsiyani belgilab beradi, yani u osmotik bosimga teng bo'ladi. Plazmolizni boshlab beruvchi eritma konsentratsiyasidan bosimga o'tish uchun maxsus jadvallardan foydalaniladi

Bilimlarni tekshirish uchun savollar.

1. Yorug'sevar va soyasevar o'simliklarning asosiy xarakterli farq qiluvchi belgilarini ko'rsating?
2. O'simlik hujayrasining qaysi tuzilmasida fotosintez jarayoni o'tadi?
3. Hujayraning issiqlikka chidamliligiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?

3-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

TURLI JOYLARDA O'SUVCHI O'SIMLIKLARNING ANATOMIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARINI TAQQOSLASH

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. O'simliklarning anatomik morfologik tuzilishlari yashash muhiti bilan bog'liqdir. O'simliklar qaysi muhitga yashab moslashganligi ularning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

O'rganilayotgan o'simliklar barcha anatomic- morfologik tuzilishlariga qarab o'simliklarning yashash sharoiti va namlik, yorug'lik, issiqlik omillariga nisbatan qaysi ekologik guruhga mansubligini aniqlash mumkin.

Material va jihozlar. Turli ekologik sharoitlarda o'sayotgan nilufar, ryaska, makkajo'xori, sebarga, saksovul, yantoq kabi o'simliklarning gerbariylari, lupa, mikroskop, ustara, buyum va qoplagich oynalari, igna, gletserin, lanset, suvdon, tomizgich, filtr qog'oz, millimetrlarga bo'lingan chizg'ich, okulyar mikrometr, xlorid kislotaning konsentrlangan eritmasi va floroglyutsin eritmasi.

Ishni bajarish tartibi. O'simlik bargi morfologik tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab barglarga ajratiladi. Bargning morfologik xususiyatlari lupa yordamida o'rganiladi.

O'simlikning muhim qismlaridan biri bu uning yaprog'i hisoblanib, yaprog nashtarsimon, ovalsimon, tuxumsimon, yuraksimon, nayzasimon va boshqa shakllarda bo'ladi. Yaprog'ining qir qilish darajasiga ko'ra bo'lakli, chuqur bo'lakli va qir qilgan turlari ajratiladi. Yuqoridagi morfologik xususiyatlar kuzatilgandan so'ng chizg'ich yordamida barg yaprog'ining barg yaprogining bo'yi, eni va qalinligi o'lchanadi. Tukchalar epidermaning tashqi devorining cho'zilishidan hosil bo'ladi. Ular bir hujayrali, ko'p hujayrali, oddiy, bezli va boshqa shakllarda uchraydi. Odatda qalin tuklar o'simlikni ortiqcha suv bug'latishdan va qizib ketishdan himoya qiladi. Qalin namatsimon tuklar tog'li rayonlarda o'suvchi o'simliklarni kechasi va kunduzi keskin o'zgaruvchan temperaturadan saqlaydi. Lupa yordamida o'rganilayotgan o'simlik barglari qanday darajada tuklarga ega ekanligi, yani tuksiz, siyrak tukli, yoki qalin tukli ekanligi so'zlar bilan ifodalanadi. Tashqi muhit ta'siri natijasida o'simliklar barglarining shakli o'zgarib, boshqa organlar shakliga kirishi mumkin. Bunda ular tikan (zirk, kaktus), gajak (qovun) va tangacha shakllarda

bo'ladi. O'rganilayotgan o'simliklarning qaysi turlarida metamorfoz hodisasi uchrashini aniqlash bilan barg morfologiyasiga doir ishlar yakunlanadi.

O'simlik organlarining anatomic tuzilishini o'rganishda vaqtincha yoki doimiy preparat tayyorlanadi. Vaqtincha preparat tayyorlash uchun ustara yoki lezviyalardan foydalanish mumkin. Kesik tayyorlash uchun barg marjon daraxti o'zagi yoki kartoshka tugunagi bo'lagi orasiga olinib, obekt bilan birgalikda yupqa, nozik ketsiklar tayyorlanadi. Kesik tayyorlab bo'lingandan so'ng buyum oynasiga 2-3 tomchi suv tomizilib, uning ustiga kesik jolashtiriladi. So'ngra qoplagich oyna ehtiyotlik bilan ushlanib, havo pufagi hosil qilmaydigan holda yopiladi. Mikroskop ostida uning qay darajada sifatli tayyorlanganligi sinab ko'riladi. Shundan so'ng qoplagich oyna olinib, obektga floroglyutsin eritmasi tomiziladi. Oradan 1,5 -2 daqiqa o'tgandan so'ng filtr qog'oz yordamida reaktiv shimdirib olinadi. Uning o'rniga 1-2 tomchi konsentrlangan xlorid kislotadan tomiziladi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, bu eritma ham filtr qog'ozga shimdirib olinadi. Nihoyat, kesik ustiga 1 – 2 tomchi gletsirin tomizib, qoplagich oyna yopiladi va mikroskop ostida uning anatomik xususiyatlari o'rganiladi.

Turli o'simliklar barglarining anatomik- morfologik xususiyatlari

2-jadval

Barglarning tasviri	Nilufar yoki ryaska	Makkajo' xori yoki sebarga	Saksovul yoki yantoq
Morfologik xususiyatlari: Shakli uzunligi, mm eni, mm qalinligi, mkm yaprog'ining qir qilish darajasi tuklar bilan qoplanganligi metaforfozi Anatomik xususiyatlari: Epidermaning qalinligi, mkm 1 mm ² yuzadagi og'izchalar soni palisad to'qima (bundagi qavatlar soni, o'lchami hujayralarning shakli) bulutsimon to'qima (rivojlanish darajasi) mexanik to'qimaning rivojlanishi, o'simlikning yashash sharoiti, ekologik guruhi			

Barglar anatomiyasini o'rganish dastlab epiderma to'qimasidan boshlanadi. Buning uchun barg yaprog'i qalinligining qancha qismi ushbu

to'qimaga to'g'ri kelishi aniqlanadi. 1 mm² yuzaga to'g'ri keluvchi og'izchalar soni hisobga olinadi. Barg eti, yani mezofil palisad va bulutsimon hujayralar yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, ularda alohida hujayralarning qavati, qalinligi va shakllari kuzatiladi. Bargda mexanik to'qimalar kollenhima va skelerenhema ko'rinishlarda uchraydi. Kollenhima epiderma ostida shakllanib, o'tkazuvchi to'qima atrofida joylashadi. Skelerenhima esa o'tkazuvchi to'qimalar hamda naylarni o'ragan holda uchraydi. Mezofilda ba'zan mexanik to'qimaning yakka shoxlangan tayanch hujayralari – skeleridlar uchrashi mumkin. O'rganilayotgan o'simliklarning barcha anatomic- morfologik tuzilishlari ko'rib chiqilgan jadval to'lgizilib, o'simliklarning yashash sharoiti va namlik omiliga nisbatan qaysi ekologik guruhga mansubligini 2- jadval ma'lumotlari asosida xulosa qilish mumkin.

Bilimlarni takshirish uchun savollar.

1. Suv o'simliklarining muhitga moslashishi qaysi anatomic tuzilishining xususiyatlari bilan bog'liq?
2. Kserofit o'simliklar antomo-morfologik tuzilishiga ko'ra qurg'oqchilikka qanday moslashgan?
3. Suv va tuproq yashash muhiti sifatida qanday ahamiyatga ega?

4-LABORATORIYA MASHG'ULOT

ORGANIZMLARNING YASHASH MUHITIGA MOSLASHGANLIGINI O'RGANISH

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. Hayvonlarning muhitga moslashishi nihoyatda turli-tuman. Ulardan biri himoya rangidir. Ko'pchilik hollarda hayvonlarning tashqi rangi o'zi yashayotgan muhit rangiga juda o'xshash bo'ladi. Chunonchi beshiktebratar, ninachi, kapalaklar yoki chigirtkalar yashil o'simliklar orasida deyarli farq qilmaydi. Natijada ular bilan oziqlanuvchi qushlar bunday hasharotlarni topishda qiynaladi.

Hayvonlarda va o'simliklarda yashash muhitiga fiziologik, morfologik va xulqiy etologik moslanishlarni hosil qilgan, ba'zan esa, muhit sharoitining o'zgarishi ham ularda bu o'zgarishlarning shakllanishiga olib keladi.

O'simliklar olamida muhit omillariga nisbatan bir qancha moslanishlar bor. Chunonchi nam tanqisligiga o'simliklar turlicha moslashgan. Ba'zi o'simliklar barglarining ustki mum qavati (fikus), qalin tuklar (sigirquyruq) bilan qoplangan. Sakso vulda barglar kichik tangachalarga aylangan, og'izlari yo'q. Yantoq va shuvoq qurg'oqchilik paytida barglarini to'kish orqali o'z hayotini saqlaydi. Shuningdek o'simliklarning changlanishi bilan aloqador bir qancha moslanishlar bor. Hasharotlar bilan changlanadigan o'simliklar xushbo'y hid, xilma-xil rangi va nectar ajratishi orqali hasharotni o'ziga jalb qilsa, shamol yordamida changlanadigan o'simliklarning guli odatda mayda, ko'rimsiz, rangsiz, hidsiz bo'ladi.

Jihozlar: akvariumdagi baliqlar, qafasdagi to'ti, kanareyka yoki boshqa qushlar, tirik burchakdagi toshbaqa, tipratikan, shuningdek yantoq, sigirquyruq, kaktus hamda hayvon va o'simliklardagi maskirovka, ogohlantiruvchi rang va mimikriya hodisasiga doir rasmlar.

Ishning borishi

1. Qushlarda havo muhitida yashashga qanday moslanishlar borligini kuzating.
2. Baliqlarda suv muhitida yashashga qanday moslanishlar borligini kuzating.
3. Tipratikan va toshbaqada dushmanlardan himoyalanişga oid qanday moslanishlar borligini aniqlang.

4. Yantoq va sigirquyruq o'simliklarida o'txo'r hayvonlardan saqlanishda nam tanqisligiga va o'txo'r hayvonlardan saqlanishga nisbatan qanday moslashishlar borligini aniqlang.

5. Kuzatishlarga qarab quyidagi jadvalni to'ldiring.

3- jadval

<i>Organizmlar</i>	<i>YAshash muhitiga moslanishlar</i>	<i>Dushmanlardan saqlanishga oid moslanishlar</i>
1. Sutmizuvchilar (tipratikan)		
2. Qushlar		
3. Sudralib YUruvchilar		
4. Baliqlar		
5. YAntoq		
6. Sigirquyruq		
7. Kaktus		

Bilimlarni takshirish uchun savollar:

1. Moslanishning qanday turlari bor?
2. Fiziologik moslanishga misol keltiring?
3. Morfologik moslanishga misol keltiring?
4. Maskirovka deb nimaga aytiladi?
5. Mimikriya hodisasi deb nimaga aytiladi?
6. Xulqiy etologik moslanishlarga misol ayting?

5 – LABORATORIYA MASHG'ULOTI

HAYOTIY SHAKLLAR

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. O'simlik va hayvonlarning tashqi muhitning asosiy omillariga nisbatan morfologik moslanishlari va hayot kechirish tarsi organizmlarning hayotiy shakli deyiladi. O'simliklarning hayot shakli deyilganda ma'lum tashqi muhit sharoitida o'simliklar guruhlarining o'sish va rivojlanish natijasida kelib chiqadigan umumiy ko'rinishi (qiyofasi, gabitusi) tushuniladi. Gulli o'simliklarning hayot shakllari Daniyalik botanikolim **K.Raunkier** tasnifi bo'yicha 7 turga bo'lib o'rganiladi: **Fanerofitlar, Xamefitlar, gemikriptofitlar, Kriptofitlar, Terofitlar, Gelofitlar, Gidrofitlar.**

1. Fanerofitlar.


"Faneros"—yaqqol ko'rinib turuvchi deganni bildiradi, fanerofitlar daraxt va butalar bo'lib, ularning yangilanuvchi kurtaklari yer yuzasidan ancha yuqori joylashgan, qishda novdalari sovuqdan nobud bo'lmaydi.

2. Xamefitlar.

"Xame"—past, yer bag'irlovchilar degan ma'noni bildiradi. Ular mayda va chala butachalardan iborat bo'lib, ularning yangilanuvchi kurtaklari yer yuzasiga ancha yaqin joylashgan, sirti esa tangachalan bilan qoplangan. Qishda bu kurtaklar qor bilan qoplanadi. Novdalari qishda nobud bo'lmaydi.

3. Gemikriptofitlar.

"Gemi" —yarim, "kriptos" — yashirin degan ma'noni bildiradi, bular ko'p yillik o'simliklar bo'lib, ularning yer ustki qismi qishda qurib qoladi, yangilanuvchi kurtaklari esa yer sathi bilan barobar joylashgan bo'ladi.



O'simliklarning hayot formalari(Kriksunov,1995)

4. Kriptofitlar.

Ko'p yillik o't o'simliklari bo'lib, ularning yer ustki organlari qishda butunlay qurib qolib, yangilanuvchi kurtaklari yer ostki organlarida, tugunaklar, ildizpoyalar va piyozboshlarda saqlanib qoladi.

5. Terofitlar

Bir yillik bahorgi o'simliklarning yer ostki va ustki qismlari qishda qurib, faqat urug'lari qoladi. K.Raunker klassifikatsiyasidan tashqari bir necha klassifikatsiyalar ham bor.

Zoologiyada **hayvonlarning hayot** formalarini aniqlashda turli holatlar va hayvonlarning biologik hislatlarini hisobga olishga to'g'ri keladi. Jumladan, bir hollarda hayvonlarni tashqi qiyofasi asos qilib olinsa, ikkinchi holda ularning ko'payish yo'llari, uchinchi holda esa, harakat qilishi yoki ozuqalanish yo'llari asos qilib olingan. Masalan, D.N.Qashkarov hayvonlarning hayot formalari bo'yicha, tubandagi klassifikatsiyani beradi:

1. Suzib yuruvchi formalar.

- a) To'la suv formalari — nekton, plankton, bentos.
- b) Yarim chala suv formalari — sho'ng'uvchilar, sho'ng'imaydigan, suvdan faqat ozuqa topuvchilar.

2. Yer kovlovchi formalar:

- a) mutloq yer qazirlar (butun hayoti er ostida o'tadi)
- b) qisman yer qazirlar (er ustiga chiqib turadiganlar)

3 Yer usti formalar:

- a) In qilmaydigan: yuguruvchilar, sakrovchilar, sudralib yuruvchilar.
- b) In quruvchilar: yuguruvchilar, sakrab yuruvchilar, sudralib yuruvchilar.
- v) qoya hayvonlari.

4. Daraxtlarda o'rmalovchi formalar, daraxtdan tushmasdan yashovchilar va vaqtincha daraxtga o'rmalovchilar.

5. Havo formalari.

Ozuqani havodan turib topuvchilar, yerdagi ozuqaga havodan qaraydigan formalar.

D.N.Qashqarov klassifikatsiyasida hayvonlar morfologiyasi, harakat qilishi va ovqatlanishi kabi xislatlari inobatga olingan. Hayvonlar, muhitning namlik darajasiga qarab namlik sevar (gigrofillar) va quruqlikni sevar (kserofillar) guruhlarga bo'linadi.

Oziqlanishiga qarab hayvonlar o'txo'r; hamma narsa bilan ovqatlanuvchilar; yirtqichlar va o'laksalar bilan ovqatlanuvchilarga bo'linsa,

yashash joyida ko'payishiga qarab yer ostida ko'payadigan formalar; yer ustida, o'simliklarda, butalar orasida va daraxtlar ustida ko'payuvchi guruhlariga bo'linadi.

Rus olimi **I.Serebryakov** o'simliklarning hayotiy shakllarini 3 ga bo'lib tasniflaydi:

1. Daraxtsimon o'simliklar
2. Chala daraxtsimon o'simliklar, butalar, chala butalar.
3. O'tchil o'simliklar.

Hayvonot dunyosida hayot shakllanishi tasniflashda tashqi muhitning umumiy xususiyatlaridan tashqari ayni shu muhitdagi harakatlanish imkoniyatlari hamda ozuqaning xarakteri muhim ahamiyatga ega. Hayvonlarning quyidagi hayotiy shakllari ajratiladi **geteroterm, poykiloterm va gomoyoterm hayvonlar**.

Turli muhitlarda harakatlanish xususiyatlariga ko'ra quyidagi hayot shakllari ajratiladi:

- I. Suzuvchi hayvonlar: (suvda yashovchilar, suvda va quruqlikda yashovchilar)
- II. Kovlovchilar
- III. Quruqlikda yashovchi hayvonlar
- IV. Daraxtga yashovchilar
- V. Havo muhitidagi shakllar (havoda ozuqa topuvchilar, havoda kuzatib turib ozuqa topuvchilar)

A. Ko'p yillik o't o'simliklarining hayot shakllari tahlili

Material va jihozlar. Sebarga, zubturm, gulsafsar, bug'doyiq, ajriqbosh, kartoshka, piyoz va yovvoyi qulupnaylar gerbariysi.

Ishni bajarish tartibi. Diqqat bilan yuqorida ko'rsatilgan o'simliklarning tashqi ko'rinishini kuzatib chiqing. Bunda yer ostki organlariga alohida e'tibor bering. O'simliklarning tashqi tuzulishi asosida ularni **T.I.Serebryakov** turkumlashi bo'yicha hayot shakllariga ajrating. Quyidagi jadvalni to'ldiring:

3- Jadval

O'simlik nomlari	Hayot shakli	Bargining shakli	Guli to'pguli va mevasi	Er ostki organlari	ahamiyati

B. Sut emizuvchi hayvonlar hayot shakllarining tahlili

Material va jihozlar. Burunduq, yumronqoziq, dala sichqoni, kitsimonlar, tuyuqlilar, yirtqichlar va boshqa hayvonlarning tulumu yoki rangli rasmlari.

Ishni bajarish tartibi. Hayvonlarning hayot shakllarini o'rganishda guruhli suhbat o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Sut emizuvchilarning tulumu yoki rasmlari tasvirlangan jadvallardan foydalanib, o'xshash hayot tarziga ega bo'lgan sut emizuvchilar, yani yer ostida yashovchilar (krot, ko'rsichqon), yer yuzida yuguruvchilar (tuyuqlilar, yirtqichlar), sakrovchilar (yumronqoziqlar, kengurular), daraxtlarga tirmashuvchilar (yalqovlar, maymunlar), uchuvchilar (qo'shqanotlilar), suvda yashovchilar (kitsimonlar, tyulenlar) o'rganib chiqing va natijalar asosida 5- jadvalni to'ldiring.

4- Jadval

Hayvon nomlari	Yashash muhitiga ko'ra hayotiy shakli	Tana haroratiga ko'ra tasnifi	Oziqlanishiga ko'ra tasnifi	Ahamiyati

Bilimlarni takshirish uchun savollar:

1. Hayotiy shakl deb nimaga aytiladi?
2. Raunker tasnifi o'simliklarning qaysi xususiyatlariga asoslanadi?
3. Ekologo- morfologik tasniflash mezonlari qaysilar?
4. D.N.Qashqarov hayvonlarni qanday hayotiy shakllarga ajratadi?
5. Turli muhitlarda harakatlanish xususiyatiga ko'ra hayvonlar qanday hayotiy shaklga ajratiladi?


6-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

BIOTIK VA ABIOTIK OMILLARNING TUPROQ STRUKTURASIGA TA'SIRI

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. Tuproq bu – suv, havo va turli organizmlarning birgalikdagi ta'siri natijasida tog' jinslarining tabiiy holda o'zgargan tashqi qatlamidir. Tuproqning muhit sifatida organizm ko'rsatadigan asosiy xususiyatlariga uning tabiiy va kimyoviy tarkibidagi moddalarning aylanib turishi, (ya'ni gazlar, suv organik va mineral moddalarning ion holda aylanish) kiradi. Shu bilan birga tuproqda yashovchi o'simlik va hayvon turlari uning tabiiy kimyoviy xususiyatlarini o'zgarishiga ham sababchi bo'ladi. O't o'simliklarining ildiz tizimlari tuproqda chirib gumus moddasini hosil qilsa, hayvonlar ularni maydalab kimyoviy o'zgarishga hamda ushbu organik qoldiqlarga tezda mikroorganizmlarning kelib hayot kechirishiga sharoit yaratib beradi. Tuproqdagi organizmlar har xil o'lchamga ega va turli muhit hosil qiladi.

Material va jihozlar. Karta qalin qog'oz yoki kartonlar, 1mm, 5mm, 10 mm, va 15 mm ko'zchali elaklar, binokulyarlar, pinsetlar va tarozi.

Ishni bajarish tartibi. Yirik gul tuvaklari yoki yog'och yashiklarga 2– 3kg tuproq 1mm li ko'zchaga ega bo'lgan elakdan o'tkazib solinadi. Tuproq namlanib, 1 kg tuproq hisobiga taxminan 5 – 7 dona chuvalchang to'g'ri keladigan qilib aniq sondagi chuvalchanglar joylanadi. Tajriba uchun dala yoki tomorqadagi haydalma qatlamlardan olingan bo'z tuproq tavsiya etiladi. Tuproqni vaqti- vaqti bilan namlab turgan holda chuvalchanglar unda 1- 1,5 oy davomida ushlab turiladi. yashiklardan biri chuvalchangsiz qoldirilib, u ham tajriba yashiklari kabi sug'orib turiladi. Tajriba yashiklaridan chuvalchanglar ajratib olinib, 1 kg li tuproq tarozida tortib olinadi. Turli diametrli elaklar orqali tuproq elanib, fraksiyalar ajratiladi. Har bir fraksiya alohida tortib olinadi. Turli diametrli elaklar orqali tuproq elanib, fraksiyalarga ajratiladi. Har bir fraksiya alohida tortib olinadi. So'ngra namunani umumiy massasiga nisbatan uning massasi necha foizni tashkil etishi qayd etiladi. Ushbu ishlar chuvalchangsiz ashikda ham amalga oshiriladi. Yirik tuproq bo'laklari binokulyar orqali kuzatilib, quyidagi jadval to'lg'ziladi (6-jadval)



Turli hayotiy shakldagi yomg'ir chuvalchaglari

1. –Dendrodrilus ribilus – tuproqning yoqori qatlamida yashovchi chuvalchang
2. –Octolasion lacteum – yuqori va o'rta qatlamda yashovchi chuvalchang
3. –Nicodrilus roseus - tuproqning quyi qatlamlarida yashovchi chuvalchang

6-Jadval

Tuproq zarrachalarining o'lchami,(mm hisobida)	Turli o'lchamdagi zarrachalar miqdori, %	
	Tajriba	Control
1 dan kichik		
1-15		
10-15		

Bilimlarni takshirish uchun savollar:

1. Tuproqning muhit sifatidagi ahamiyatini ayting?
2. Tuproqda tarqalgan o'simlik va hayvonlar o'lchamiga ko'ra qanday ekologik guruhlariga ajratiladi?
3. Yomg'ir chuvalchaglari hayot kechiradigan tuproq muhiti unumdor hisoblanadimi?
4. Tuproq muhitida yer osti va yer usti hayvonlarining faoliyati qanday?

7-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

ANTROPOGEN OMILLAR VA ULARNING TASHQI MUHITGA TA'SIRI

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. Antropogen omillar insonning faoliati natijasida kelib chiqadigan omildir. Antropogen ta'sir natijasida ekotizimlarning tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'lanishlarning buzulishiga, inqirozga yuz tutishiga, cho'llarni o'zlashtirish, o'rmonlarni kesib yuborish, pichan o'rish va mol boqish, suv, tuproq va havoni sanoat chiqindilari, zaharli kimyoviy moddalar, maishiy chiqindilar bilan ifloslantirishga olib keladi. Ba'zi hollarda hatto biotsenozlarning butunlay yo'qolibketishiga ham sababchi bo'ladi.

Material va jihozlar. Suv o'tlari, umurtqasiz hayvonlar, baliqlarni aniqlagichlari, suv va loyqa solingan shisha idishlar, o'rganilayotgan suv havzasidagi suv o'simliklari, mikroskop va u bilan ishlash uchun kerak bo'ladigan asboblari.

Ishni bajarish tartibi. Sanoat chiqindilari tufayli ifloslangan suv havzasidan olingan namunadan 1-2 tomchi olib, mikroskop ostida kuzating. Mikroskop ostida soda hayvonlardan infuzoriyalari, amfibyalarni toping va ularni harakatini kuzating. So'ng suv havzasining turli joylaridan yig'ilgan suv o'simliklarini turlarini adabiyotlardan foydalanib, aniqlang, ularning qaysi sistemadagi guruhga mansubligini belgilab oling. Suv tubida va qirg'oq bo'yidagi loyqa namunalari uchrayotgan hayvonlarning turkumlarini ham aniqlang. Shu bilan birga ushbu suv havzasida uchraydigan yirik hayvonlar kapalak, ninachi, qisqichbaqa, baliq, baqa, qushlar va sut emizuvchi hayvonlar haqidagi ma'lumotlarni ham to'plang. Ushbu natijalarni tabiiy suv havzalaridagi manzara bilan solishtirib chiqing. Ikki suv havzalari orasidagi o'xshashlik va farqlarni tahlil eting. Yig'ilgan ma'lumotlar asosida ushbu suv havzasining ifloslanish darajasini aniqlang. Uni "o'rtacha" yoki "kuchli" ifloslangan degan so'zlar bilan ifodalash mumkin. Nihoyat, ushbu suv havzasiga qanday sanoat chiqindilari tushib ifloslantirishi, shuningdek ifloslanishga qarshi qanday kurash olib borilishi keraklik haqida o'ylab ko'rilishi lozim.

Bilimlarni takshirish uchun savollar:

1. Antropogen ta'sir deb nimaga aytiladi?
2. Insonning tabiatga qanday ta'siri mavjud?
3. Insonning tabiatga ta'sir etish shakllarini ayting?

8-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

O'SIMLIKLAR POPULYATSIYASINING YOSH TUZILMASINI ANIQLASH

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. Populyatsiyaning yosh tuzilmasi, qayta tiklanishning jadalligi, nobud bo'lish darajasi va nasllar gallanishining tezligi kabi muhim jarayonlarni ifodalaydi. U aniq sharoitga qarab har bir populyatsiya uchun turning genetik xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Yosh tuzilmasi har xil usullarda ifodalanadi. Fitotsenozdagi muayyan turlarning har xil holatdagi individlarning yig'indisi seno populyatsiya deb ataladi. Gulli o'simliklar misolida ko'radigan bo'lsak unga tuproqda o'z hayotchanligini yo'qotmagan urug'lar, nihollar va mazkur turning har xil yoshdagi vakillari kiradi. T. A. Rabotnov o'simliklar jamoasidagi o'simliklarning hayotini quyidagi asosiy yosh davrlarga ajratdi: **latent davri, virgil davri, generativ davri, senil davri.**

Virginil davr - usimlikning usishi va rivojlanishida urug unib chikishidan birinchi marta gullagungacha bulgan davri.

Generativ davr - usimlikni birinchi marta gullashidan oxirgi marta gullagungacha bulgan davri

Senil davr - usimlikni oxirgi marta gullashidan kurigungacha bulgan davri.

Latent davr - usimlikning tinim davri (urugi].

Material va jihozlar. Yantoqning va boshqa gulli o'simliklarning turli yosh holatlari hisobga olib yig'ilgan gerbariy namunalari. O'simliklarning yosh holatini ifodalovchi jadval va o'quv qo'llanmalari.

Yantoq- ko'p yillik ildizpoyali o't o'simlik. U O'rta Osiyoning Qoraqum, Qizilqum, Usryutr, Sirdaryo va Amudaryo bo'ylarida, Farg'ona vodiysidagi barcha o'zlashtirilgan va o'zlashtirilmagan yerlarda uchraydi.

Yantoq kulrang- qo'ng'ir, kuchsiz sho'rlangan qumli tuproqlarda, ko'pincha daryolarning qurib qolgan qirg'oqlarida, tashlandiq yerlarda, tekisliklarda, lalmi dhqonchilik erlarida begona o't sifatida o'sadi.

Yantoqning urug'i mayda, silliq, buyraksimon, to'q qo'ng'ir rangda, urug' pallalari ovalsimon, tuksiz, qisqa bandli. Boshlang'ich haqiqiy burglar 9—13 kundan keyin yoziladi. Ildizi shu vaqtlarda 8—10 sm chuqurga boradi. 40-45 kun ichida novdalarining yalpisiga shoxlanishi kuzatiladi. Shoxlanish xususiyatlaridan biri tikanlarning shakllanishidir. Bir yillik individlarda dastlabki tikanlar 2-5 bo'g'inlarda 22-27 kunlari rivojlanadi. Vegetativ davrining

oxirida (5 oylik) yantoqning to'liq shakllanganligi va ko'p sonli bargalarga ega bo'lishi kuzatiladi. Ikkinchi yili vegetatsiya boshlanishi bilan yillik novdalarda 2- turdagi burglar hosil bo'ladi ostki tangachasimon va haqiqiy fotosintez qiluvchi burglar.

Yatoq madaniy holda o'stirilganda (generative davrga ikkinchi yili vegetatsiya qiluvchi individlarning 60 % o'tadi) voyaga yetgan virgil individlar jinsiy voyaga yetgan individlardan ancha yirik barglari va mayda tikanlari bilan ajralib turadi. Ikkinchi yilgi o'simlik ildizpoyasidan shakllangan 2-3 ta yer ustki novdalar tashqi ko'rinishi bilan ona o'simlikdan farq qilmaydi va ular gullab meva beradi.

Uchunchi yil vegetatsiyasidagi o'simlik 86 % gacha gullab meva hosil qiladi. Tabiiy yantoqzorlarda ko'pincha meva hosil qilmaydigan individlar uchraydi. Ushbu individlar qarigan bosqichda bo'lib, xalq orasida u qora yantoq deb nom olgan.

Ishni bajarish tartibi. Yantoq o'simligidan yig'ilgan gerbariy namunalarining tashqi tuzilishini kuzatish orqali hamda o'quv qo'llanma, jadvaldan foydalanib, har bir namunaning yosh holati aniqlanadi. Shuningdek, gerbariyalar o'simlikning ontogenetk bosqichlari asosida ketma-ket qo'yib chiqiladi. Ish daftariga ayrim yosh holatlarini qisqacha yozib olish bilan ish yakunlanadi. Tajriba yer uchastkasidagi o'tloqdagi fitotsenoz tarkibini o'rganing. Bu tarkibni tashkil etayotgan har bir o'simlikni rivojlanishining qaysi bosqichda ekanligini aniqlab jadval tuzing. Xuddi shunday kuzatishni ildiz bachkisidan ko'payuvchi o'tloqzorlarda ham kuzating.

Bilimlarni tekshirish uchun savollar.

1. Populyatsiya deb nimaga aytiladi?
2. Populyatsiyaning xarakterli xususiyatlarini ayting?
3. Lantent davriga xos xususiyatlarni ayting?
4. Virgil davri nima?
5. Generativ va senil davrlariga ta'rif bering?

9-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

HAYVONLAR POPULYATSIYASINING YOSH JINS TUZILMASINI O'RGANISH

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. Populyatsiyaning jins tuzilmasi turli yoshdagi guruhlardagi erkak va urg'ochi individlarni son jihatdan nisbatidir. Populyatsiyadagi jinslar nisbati genetik qonuniyatiga va ma'lum darajada tashqi muhitga ham bog'liq. Hayvonlarning yosh tuzilmasi birinchi navbatda voyaga yetish vaqti, umr ko'rish muddati, ko'payish davri muddati, avlodlar davomiyligi, bir vaqtda tug'iladigan individlarning bunyodga kelishi muddati, har xil jins va yoshdagi individlarning nobud bo'lish xarakteri, Populyatsiyaning son jihatdan o'zgarib turish dinamikasi kabilarga bog'liq. Ammo ushbu omillar tur ichidagi har xil Populyatsiyalarda turlicha ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Bunda populyatsiyaning yosh tuzilmasi beqarorligi bilan tavsiflanadi.

Material va jihozlar. Turli hasharotlar kolleksiyalari, o'quv qo'llanmalar va jadvallar. "tirik burchak"dan olib kelingan urg'ochi va erkak quyonlar. Tarozi, chizg'ichlar, tasmali metr o'lchagich.

Hasharotlar to'liqsiz va to'liq o'zgarish yo'llari bilan rivojlanadi. Hasharotlar to'liqsiz o'zgarish bilan rivojlanganda ketma-ket uch faza (tuxum, lichinka va yetuk hasharot) ni o'tkazadi. Ushbu guruhga kiruvchi hasharotlarning lichinkalari tashqi ko'rinishi bilan yetuk hasharotga o'xshaydi, ammo ular kichikligi va qanotlarining taraqqiy etmaganligi, burt bo'g'imlarining miqdori kamligi va yana bir qator belgilari bilan farqlanadi. Lichinka kata bo'lgan sari qattiq qanot paydo bo'lib, tanasi yiriklashadi, burt bo'g'imlarining miqdori ortib, umumiy gavda ko'rinishi borgan sari yetuk individga o'xshab boradi. To'liqsiz o'zgarish bilan rivojlanuvchi hasharotlarga chigirtkalar, qandalalar va shiralar misol bo'ladi.

Ishni bajarish tartibi. hasharotlardan yig'ilgan kolleksiyalar asosida to'liqsiz va to'liq rivojlanish bilan boradigan hasharotlar Populyatsiyasining yosh tuzilmasini aniqlash. Buning uchun chigirtkalar kolleksiyasini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chigirtkalarining urg'ochisi yozda tuxum qo'yib, nobud bo'ladi. Bahorda tuxumdan lichinkalar chiqadi. Lichinkalar rivojlanish davomida 4-5 marta tullanadi, yani 4-5 yosh o'tadi. Tulash jarayonida lichinkalar yiriklashib, yetuk hasharotga o'xshab boradi.

Lichinkalarni diqqat bilan kuzatib, har bir tullash davrini ajrating va quyidagi jadvalni to'ldiring (7- jadval).

To'liqsiz o'zgaruvchan chigirtkaning rivojlanishi

7-javal

Morfologik o'zgarishlar	1- Tullash (lichinka)	2- tullash (lichinka)	3- tullash (lichinka)	4- tullash (lichinka)	5- tullash (lichinka)	Etuk (imago chigirtka)
Tanasining o'lchami						
Qanotlarining rivojlanishi						
Burt bo'g'imlarining miqdori						

Laboratoriya sharoitida shisha idishda parvarish etilayotgan o'rgimchak, chigirtka yoki akvariumdagi baliqlarni ma'lum hajmdagi maydonda mavjud individlarning yoshi, jinsi va rivojlanish bosqichi bo'yicha guruhlab, ularning sonini jadvalda tasvirlang.

Populyatsiyadagi jinslar o'rtasidagi morfologik farqni o'rganish uchun erkak va urg'ochi quyonlarning og'irligini o'lchang. Bunda ularning tanasi, dumi quloqlarining uzunligi, miya qutisi, yuz va ko'z tuzilishlaridagi farqlar aniqlab, quyidagi jadvalga qayd eting. (8-jadval).

Quyondagi morfologik ko'rsatkichlar

8-jadval

Ko'rsatkichlar	Urg'ochisi	Erkagi
Tanasining og'irligi(kg)		
Tanasining uzunligi(kg)		
Demining uzunligi(sm)		
Qulog'ining uzunligi(sm)		

Bosh miya qutisining o'lchami (sm)		
------------------------------------	--	--

Bilimlarni tekshirish uchun savollar:

1. Populyatsiyadagi jinslar nisbatiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
2. Populyatsiyadagi jinslar nisbatining genetik qonuniyatlarga bog'liqmi ? misol keltiring.
3. Populyatsiyadagi jinslar nisbatining tashqi muhit ta'sirida o'zgarishiga misol keltiring.

10-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

POPULYASIYALARDA INDIVIDLAR SONINING O'ZGARISHI

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. Populyatsiyadagi individlarning soni, zichligi, tug'iluvchanligi, o'limi, yoshi va jinsiy tarkibi, egallagan joyi kabi statistik belgilar bilan ta'riflanadi. Populyatsiyaning zichligi ma'lum maydon yoki hajm birligida individlar soni yoki biomassa bilan o'lchanadi. Populyatsiya individlarining soni har xil bo'lishi mumkin. Lekin individlar soni ma'lum chegaradan kamayib ketsa, populyatsiya ham asta-sekin yo'qolib ketishi mumkin. Bu ko'rsatkich ma'lum vaqt davomida tug'ilish va o'lishning miqdori bilan o'lchanadi. Populyatsiyalarning soni mavsumiy va yillar davomida siklik o'zgarishi mumkin. Tabiiy populyatsiyalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish, populyatsiyalar sonini oqilona boshqarishni o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Material va jihozlar. Shisha idishlar, un mitasi, oq qog'oz bo'lagi, pichoq, mo'yqalamlar.

Mitta hamda mittasimon qo'ng'izlar va ularning lichinkalari qishloq xo'jaligi ekinlari va hayvon mahsulotlarini zararlantiradi. Qo'ng'izning kattaligi 13-16 mm, boshi ko'krak oldi segmentiga botiqroq bo'lib joylashgan, qanotlari yaxshi taraqqiy etgan. U qishni kattalashgan lichkalik davrida o'tkazadi.

Lichinka kattaligi 25-30 mm, uch juft qisqargan oyoqcha, orqa uchida ikkita kichik tangachalari va ikkita kichkina bo'rtmalari bor. Lichinka serharakat, bahorda g'umbaklanadi. G'umbaklar mahsulotlar orasida, pol va devor yoriqlarida joylashib rivojlanadi. G'umbak o'qish yoki sarg'ish rangda bo'lib kattaligi 16-18 mm, qorin segmentlari yonboshida, taroq tishi ko'rinishida o'simtalari bor. Yangi paydo bo'lgan qo'ng'iz birinchi kuni

sarg'ish, so'ngra qoramtir yoki qora ranga kiradi. Urg'ochisi 27-570 ta tuxum qo'yadi. Lichinka katta bo'lguncha 13-14 marta tulaydi.

Ishni bajarish tartibi. 200 g dan un solingan idishlarga 10 juft kichik un mitasidan solinadi. Tajribani takrorlab turish muddati mo'ljallab qo'yiladi. Tajriba mashg'ulot boshlanishidan 6,5,4,3, va 2 oy oldin qo'yiladi. Idishlar taxminan 25°C dagi iliq xonalarda saqlanadi.

Turli muddatlarga mo'ljallangan tajribalar navbat bilan kuzatilib, ulardagi qo'ng'izlar va lichinkalar hisoblab chiqiladi, natijalar jadvalga qayd etiladi.(9- jadval)

Turli rivojlanish davrlardagi Populyatsiyalar soni

9-jadval

Turli muddatlar da oylar	Qo'ng'izlar soni				Lichinkalar soni			
	1- idis h	2- idis h	3- idis h	O'rtacha si	1- idis h	2- idis h	3- idis h	O'rtacha si
2								
3								
4								
5								
6								
7								

Bilimlarni tekshirish uchun savollar:

1. Populyasiya soni deb nimaga aytiladi?
2. Populyasiyada tug'ilish va o'lish nima?
3. Tasodifiy o'zgarishlar populyatsiya soniga qanday ta'sir ko'rsatadi?

11-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

IDEAL VA REAL TUG'ILISHLARNI TAQQOSLASH

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. Organizmlarning ko'payish qobiliyatlari genetik asosga, vakillarning yosh va jinsiy nisbatlari, generatsiyaning qaytarilish tezligi va nasl qoldirish imkoniyatiga bog'liq. Populyatsiyada individlarning maksimal tezlikda yangi vakilning hosil bo'lishidir. Agar tabiiy muhitda ekologik omillar organizm holatini chegaralab tursa, tug'ilish fiziologik kechikadi. Har qanday populyatsiya qulay sharoitda cheksiz o'sish xususiyatiga ega. Bunda populyasiyaning o'sish tezligi har bir tur uchun xos bo'lgan biotik potensialining ko'rsatkichiga bog'liq bo'ladi. Biotik potensial ko'rsatkich ma'lum vaqt birligida bir juft individlardan hosil bo'ladigan avlodlarning nazariy eng ko'p miqdorini ifodalaydi. Masalan, gekkonlar o'rtacha 1—2 ta tuxum qo'ysa, toshbaqa 100 ta, asalarilar 50 mingta tuxum qo'yadi, oybaliq esa 3 milliard uvildiriq tashlaydi. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, gekkonlarning biotik potentsiali past bo'lib, asalari va oybaliqlarning ko'rsatkichi yuqoridir.

Material va jihozlar. Populyatsiyalar dinamikasiga oid jadvallar, grafiklar, sxemalar va baliqlarning ko'payishi haqida ma'lumotlar.

Ishni bajarish tartibi. Quyida lososlar oilasiga kiruvchi, daryo baliqlarning uvildiriq tashlashining o'rtacha soni keltiriladi. Kuzda har bir urg'ochi baliq 3200 dona uvildiriq tashlaydi. Kelgusi yili bahorda uvildiriqlardan chiqqan 640 ta mayda baliqlar qo'lga chiqib ketadi. Saqlanib qolgan 64 ta o'rtacha kattalikdagi baliq bir yil davomida ko'lga yashab, so'ng dengizga ko'chib o'tadi. Oradan 2,5 yil o'tgach, faqatgina ikkita katta yoshdagi baliq uvildiriq tashlash uchun yana daryoga bora oladi xolos. Uvildiriq tashlangandan so'ng ular ham nobud bo'ladi. Quydagi davrlar

uchun umumiy uvildiriqlar soniga nisbatan foiz hisobida nobud bo'lgan baliqlarni hisoblab chiqing:

- 1) Olti oy davomida, yani uvildiriq tashlashdan boshlab mayda baliqlarning qo'lga o'tib olishigacha;
- 2) Bir yil davomida qo'lga yashagan davrida;
- 3) 3 oy davomida, ya'ni qo'ldan chiqib qayta uvildiriq tashlash uchun qaytib kelgan davrda.

Suv havzasida uvildiriqlarning yashab qolish imkoniyatlari qanday ekanligini grafikda ifodalang. Lososlar orasida ko'payishga o'tishga qadar nobud bo'lish darajasi qanday edi?

Bilimlarni tekshirish uchun savollar:

1. Populyatsiya a'zolarining ideal va real tug'ilishlaroining farqini ko'rsating?
2. Maksimal tug'ilish deb nimaga aytiladi?
3. Populyatsiyadagi tug'ilish qanday xususiyatlarga bog'liq?

12-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

MUHOFAZAGA OLINGAN TURLAR EKOLOGIYASINI O'RGANISH

Turlarning hosil bo'lishi va ularning yo'qolib ketishi, evolyusiyaning tabiiy jarayoni bo'lib, u – yerda geologik sharoitlarning o'zgarishi asosida kechadi. Ammo, insoniyatning xo'jalik faoliyatining kuchayishi natijasida bu tabiiy jarayon buzila boshlaydi.

Material va jihozlar. O'zbekistonda muhofazaga olingan noyob va kamayib borayotgan turlarga oid o'quv qo'llanmalari, ilmiy manbalar, yozuvsiz xarita va O'zbekiston "Qizil kitob"i. Respublikamizda o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash borasida, noyob va yo'qolib borayotgan turlar sonini qayta tiklash maqsadida qo'riqxonalar va buyurtmaxonalar tashkil etishda katta e'tibor berilmoqda. Afsuski, yangi yerlarni o'zlashtirish va antropogen omillar ta'sirining ortishi bilan hayvonlarni o'z yashash joylaridan siqib chiqarilishi hamon kuzatilmoqda. Buning ustiga brakonerlik faoliyatlarni ham hisobga olinadigan bo'lsa, O'zbekistonda XIX asr oxiri –XX asr boshlarida faunamizdan butunlay yo'qolib ketgan turon yo'lbarsi va yo'qolish arafasida turgan qulon, qoplon, burama shoxli echki, qor barcha, kobra kabi qator hayvonlarni tarqalish arealini qisqarib borayotganligini ta'kidlash lozim. Shuning uchun ham bugungi kunda insoniyat oldida joylarda o'simlik va hayvonlar genofondini saqlab qolish, ayniqsa, noyob va yo'qolib borayotgan turlarni muhofaza qilishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda respublikamiz olimlari tomonidan mamlakatimiz hududidagi hayvonlar va o'simliklarning ekologiyasini o'rganish borasida olib borayotgan faoliyatlarini ijobiy baholash mumkin. Biz quyida ushbu faoliyatlarning ayrimlari haqida to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Jayron. Jayron O'zbekistonning shimoliy va janubiy qumliklarida, ayniqsa, Surxondaryo, Buxoro va qashqadaryo viloyatlarining shimoli- g'arbiy tumanlarida uchraydi. Ularning odatdagi yashash joylari tekisliklardir. Tog' oldi tekisliklari hamda cho'l mintaqasida jayronlar uchun chalov, qo'ng'irbosh, yaltirbosh, bug'doyiq, iloq, rang, astragal, qandim, yantoq, shuvoqlar, o'tloqzor va sernam tuproqlarda esa qalami qamish, shirinmiya, sho'rlangan tuproqlarda sho'raklar va boshqa o'simliklar asosiy ozuqa hisoblanadi. Yilning sovuq davrlarida jayronlar tog'ning pastki qismi va tepaliklarida bo'ladilar. Qor erishi bilan ular yangi o'sayotgan o'simliklarni qidirib tog'ning yuqori qismlariga ko'tariladi. Jayronlarning kuz, qish va bahor oylari suvga bo'lgan talabi asosan atmosfera yog'inlari hisobiga qondiriladi. Yoz oylarida Bobotog'da jayronlarning suv bilan ta'minlanishi bir oz qiyinroq. Buloqlarning suvi kuchli minerallasgan. Ichish uchun yaroqli buloqlar 1—2 tadan oshmaydi. Qo'hitangda esa issiq kunlari jayronlar suv izlab kechasi tekisliklarga tushadi. Bu brakon'erlar uchun qulay vaziyat hisoblanadi. Hozir Bobotog'da jayronlar soni kamayib bormoqda. Qo'hitang va Bobotog'dagi jayronlarning umumiy soni atigi 80—100 taga teng. Ushbu nodir turni sonini qayta tiklash maqsadida 1976 yilda, hamdo'stlik mamlakatlari orasida yagona bo'lgan Jayron ekologik markazi viloyatimizning Kogon va Qorovulbozor tumanlari chegarasida tashkil etilgan edi. Bugungi kunda ushbu Ekologik markazda jayronlar soni 1000 tadan oshganligini ta'kidlash lozim.

Lola. Lolalarning turi keyingi vaqtda juda tez kamayib ketmoqda. Respublika "Qizil kitob"iga lolalarning 23 turi kiritilgan. Lolalar orasida o'zining chiroyi bilan Greyga lolasi G'arbiy Tyanshanning noyob endemik o'simligi hisoblanadi. U ko'p yillik piyozboshli o'simlik bo'lib, bo'yi 10—45 sm keladi. Piyozboshi tuxumsimon yoki dumaloq tangachabarglar bilan qoplangan. Barglari 3—4 tadan dog'larga ega. Gullari yakka, zarg'aldoq – qizg'ish, to'q qizil, zarg'aldoq, sariq, och pushti ranglarda ham uchraydi. Aprel-may oylarida gullab, iyun-iyul oylarida meva beradi.

Ishni bajarish tartibi. O'quv qo'llanmalar, ilmiy manbalardan foydalangan holda O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan o'simlik va umurtqali hayvonlarning ekologiyasiga doir ma'lumotlarni to'plang. Ularning statusi, populyasiyaning kamayish sabablarini aniqlang. Ushbu turlarning populyyasiyasini tiklash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlarini ko'rsating. Respublikamiz hududida tashkil etilgan qo'riqxonalarni yozuvsiz xaritada tasvirlang.

Bilimlarni tekshirish uchun savollar:

1. O'zbekiston va Xalqaro Qizil kitobiga qanday turlar kiritilgan?
2. Turlar sonining kamayib ketish sabablarini tushuntiring?
3. Turning yaxlit bir butun sistema ekanligini isbotlang?
4. Buxoro vohasidagi Qizil kitobga kiritilgan qaysi o'simlik va hayvonlarni bilasiz?

13-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

O'SIMLIKLAR JAMOASI (FITOTSENOZ)NING REL'EF VA TUPROQ XUSUSIYATLARIGA BOG'LIQLIGI

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma Har qanday o'simliklar jamoasi o'zining yashash joyining xarakteri bilan ajralib turadi. Yashash joyi xarakterini ifodalashda birinchi navbatda rel'efning xarakteri hisobga olinishi lozim. Agar tog'l tuman bo'lsa, unda joyning dengiz sathidan mutloq balandligi (aneroid yordamida) aniqlanadi. Bundan tashqari, joy rel'efining umumiy xususiyatlari, ya'ni tepalik, tog', qoya, tekislik va hokazolar aniqlanadi. Tog' yonbag'rlarida esa yonbag'irlarning ekspozitsiyasi kompas orqali aniqlanadi. Qiyalik darajasi yoki burchagi ko'z bilan chamalab yoki shovunli transportyor yordamida o'lchanadi.

Keyinchalik tuproqning xarakteri o'rganiladi. Ma'lumki, har bir o'simlik jamoasiga xos tuproq turlari ajratiladi. Masalan, cho'llar uchun kulrang va qo'ng'ir tuproqlar, adirlar yoki chala cho'llar uchun och kashtan va qo'ng'ir tuproqlar, o'rmonlarda podzol tuproqlar, yaylovlardagi o'tloqzorlarda, tog' o'tloq tuproqlarining turlari uchraydi. Yuqoridagi barcha tuproq turlari biri ikkinchisidan bir necha belgilari bilan farqlanadi.

O'simliklar jamoasi yashash joyining xarakterini o'rganishda tuproqning ranggi, tuzilishi, ayrim qatlamlarining xususiyatlari, tuproqning skeleti, mexanik tarkibi, organik qoldiqlari va boshqa xususiyatlari o'rganiladi.

Rel'ef va tuproqning xususiyatlari bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish ko'p vaqtni olishi va tegishli jihozlar talab etgani uchun makrab sharoitida o'simliklar jamoasiga ushbu ekologik omillarning ta'sirini xaritalar va o'quv qo'llanmalaridan foydalanilgan holda bajarish eng qulay va ko'p vaqt talab etmaydi.

Akademik **K.E.Zokirov** Zarafshon vodiysidagi o'simliklarni uzoq yillar davomida o'rganish natijasida O'rta Osiyo hududini 4 ta : cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalariga bo'lish mumkinligini ko'rsatadi. Odatda, bunday bo'linish ma'lum bir xususiyatlarga ega. Shu yerning o'simliklar qoplami, rel'efi va tuprog'i bir-biridan farq qiladi.

Material va jihozlar. O'zbekiston o'simliklar qoplami va tuprog'ining xaritasi, tog'li tumanlarda o'simliklar jamoasining tikka taqsimlanishiga oid jadvallar, "O'zbekiston o'simliklari" (1992 y) nomli o'quv qo'llanma.

Ishni bajarish tartibi. "O'zbekiston o'simliklari"(1992 y) qo'llanmasida yovvoyi va madaniy o'simliklar cho'l, adir, tog', va yaylov mintaqalari bo'yicha bayon etilgan. Qo'llanma bilan tanishib chiqib, har bir mintaqaning muhim xususiyatiga bog'liq materiallarni jadvalga qayd eting.

O'simliklar jamoasining relief va tuproq, xususiyatlariga bog'liqligi

10-jadval

Mintaqalar	Rel'efi (dengiz sathidan balandligi)	Tuprog'ining xususiyatlari	O'simliklar jamoasi (fitotsenotipi)
Cho'l			
Adir			
Tog'			
yaylov			

Bilimlarni tekshirish uchun savollar:

1. Biotsenoz tushunchasiga ta'rif bering va uni tarkibiy komponentlarini ayting?
2. Fitotsenoz deb nimaga aytiladi?
3. Har qanday fitotsenoz qaysi xususiyatlariga ko'ra tavsiflanadi va bir- biridan farqlanadi?
4. Agrofıtsenozlarni tabiiy fitotsenozlarga o'xshash tomonlari va farqlarini ayting?

14-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

AGROSENOZDA TURLARNING TARKIBI

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. Qishloq xo'jaligida ekinlar o'stirishda ma'lum o'simliklar jamoasi vujudga keladi. Ular yovvoyi fitotsenozlardan farqlash uchun *agrofitotsenozlar* yoki *agrotsenozlar* deb ataladi. Agrotsenozlar oddiy va muarkkab turlarga ajratiladi. Masalan, g'o'za yoki beda o'stirish oddiy agrotsenoz deb qaralsa, ularni birgalikda ekish yoki bir necha turlarini birgalikda ekish murakkab *agrotsenozni* tashkil etadi. Har qanday madaniy ekin orasida begona o'tlar ham uchratiladi. Shuning uchun ham ular ma'lum o'simliklarning sun'iy jamoasini hosil qiladi. Odatda agrotsenozlarda madaniy o'simliklar hukmron bo'lib, ular 1-qavatni egalladi. Qolgan begona o'tlar turlari har xil qavatlardan joy oladi.

Material va jihozlar. Gerbariy papkasi, qog'ozlar, ruletka, chizg'ich, tesha yoki pichoq, begona o't o'simliklar aniqlagichlari.

Ishni bajarish tartibi. Odatda agrotsenozning begona o'tlar bosish darajasi aniqlanadi. Buning uchun ko'z bilan chamalab, sanab chiqish va tortish usullaridan foydalanish mumkin. Ko'z bilan chamalab usulida begona o'tlar 4 balli tizimda baholanadi, yani;

- 1 ball—begona o'tlar yakka holda uchrasa;
- 2 ball – uncha ko'p bo'lmagan holda uchraydi;
- 3 ball – ko'p uchragan holda;
- 4 ball—begona o't madaniy o'simlikdan ko'p va uni bosib ketgan bo'lganda beriladi.

Madaniy ekinning begona o't bosish darajasini ko'z bilan chamalab hisoblash

11- jadval

				Balandligi	Mo'lligi
--	--	--	--	------------	----------

Soni	Tur	Biologik guruhi	Fenologik fazasi	(sm. hisobida)	(ball hisobida)

Agrofitsenozga qisqacha tavsifnoma berib, bunda xo'jalikning nomi, joylashishi, egallagan maydoni (ga hisobida), rel'efi kabilarga e'tibor beriladi. So'ngra ko'z bilan chamalab usulida begona o'tlar turini aniqlash uchun tekshirilayotgan ekin maydonida bir necha yo'nalishda yurib, begona o'tlar turlari gerbariy uchun yig'iladi. Madaniy ekinni ko'z bilan chamalab begona o't bosish darajasini baholashni 11-jadvalga qayd eting.

Bilimlarni tekshirish uchun savollar:

1. Agrotsenoz deb nimaga aytiladi?
2. Oddiy va murakkab agrotsenozlarni farqini ayting?
3. Agrotsenozlarning tur tarkibi va qavatlilikini tushuntirib bering.

15-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

ADIR ZONASINING O'SIMLIKLAR JAMOASI BILAN TANISHISH

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. Adir mintaqasi O'zbekiston tog'larining pastki qismini ishg'ol etgan tabiiy- tarixiy zonadir. U dengiz sathidan 500 (700) m, ba'zi joylarda, hatto 900 -1200 (1600) m gacha bo'lgan balandliklarni o'z ichiga oladi. Adirning qurg'oqchil tepaliklarida boshqoli o'simliklar hukmronlik qilib, yashil fon hosil qiladi, pastroq joylarda esa dukkakdoshlar va boshqodoshlarning vakillari ishtirok etadi. Ba'zi joylarda kampirchoponlarning va astragaldoshlar oilalarining vakillaridan iborat kulrang oqish fondagi manzaralar ko'zda tashlanadi. Shunday qilib, adir mintaqasida bir necha turdagi o'simliklar jamoasini kuzatish mumkin.

Material va jihozlar. Aniqlagichlar, chizg'ich, ruletka, o'quv qo'llanmalari, qoziq.

Adir o'simliklar jamoasini o'rganish uchun 1 m² maydoncha ajratib olinib, uning turlar tarkibi, tuzilishi, zichligi o'simliklarning tarqalganlik holati va boshqa xususiyatlari tahlil qilinadi. O't o'simliklar, avvalo xo'jalik guruhlariga, ya'ni boshqoli, dukkakli, har xil o'tlar va hilollarga ajratiladi. Ularning mo'lligi 4 balli tizmda aniqlanadi:

O'simlik fon hosil qilganda – 4 ball,

O'simlik ko'proq uchraganda – 3 ball,

Kamroq uchrasa –2 ball,

Juda kam uchraganda – 1 ball beriladi.

Shuningdek, fenologik holatlari, vegetatsiya, g'unchalash, gullash, meva hosil qilish va qurib, qovjirab qolishlar qayd etiladi. Barcha notanish

o'simliklar tartib raqami bo'yicha gerbariy uchun yig'iladi. Adir o'simliklar jamoasi ko'pincha 3 ta qavatlikka ajratiladi. Qavatlik deyilganda turlarining fazoda har xil holatlarda joy olishi tushuniladi. Adir jamoasining 1- qavatini baland bo'yli boshhoqlilar tashkil etadi. 2- qavatda ham boshhoqlilar, dukkakdoshlar va har xil o'tlar ishtirok etadi. 3- qavatda moxlar va ular bilan birgalikda past bo'yli yovvoyi bedalar qatnashadi. Har bir qavatdagi o'simlik turlarining tarkibi aniqlanadi va bo'ylari o'lchanib sm hisobida qayd qilinadi. Adir o'simliklari o'sadigan mintaqalar eng yaxshi bahori yaylovlar hisoblanib, undan hamma turdagi chorva mollarini boqishda foydalanish mumkin.

Ishni bajarish tartibi. adir o'simliklari misolida biz aniq bir o'simliklar jamoasini qichqacha o'rgandik. Iloji bo'lsa, ushbu namunaga asoslanib, har qanday o't o'simliklar jamoasining turlar tarkibi, tuzilishi hamda xo'jalik ahamiyati haqida fikr yuritishingiz mumkin. Kuzatish natijalari jadvalni to'ldirish bilan yakunlanadi.

O't o'simliklar jamoasini tasvirlash

Tasvirlash tartibi №

Namuna maydonchasining o'lchami _____m²

Geografik joylanishi (viloyat, tuman, xo'jalik)

Rel'efi _____

Tuprog'i(turi,namlik, darajasi)_____

Kuni

12-jadval

№	Guruhlar bo'yicha o'simliklarning nomi	Qavatlik	Balandligi sm	Mo'lligi (4 ball hisobida)	Fenofaza si	O'simlikning xo'jalik tavsifnomasi
1.	Boshhoqlilar					
2.	Dukkakdoshlar					
3.	Har xil o'tlar					
4.	Hilollar					
5.	Mohlar va lishayniklar					

Bilimlarni tekshirish uchun savollar:

1. Adir mintaqasi o'simliklarining tur tarkibiy tuzilmasi haqida tushuncha bering?
2. Adir o'simliklar jamoasi qanday qavatlik hosil qiladi? Misollar keltiring.
3. Adir mintaqasida qanday o'simlik oilalarning vakillari ko'proq uchraydi?

16-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

TROFIK DARAJALAR VA OZUQA ZANJIRLARINI O'RGANISH

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. Biotsenozlardagi trofik turlar juda murakkab bo'lib, tashqaridan qabul qilingan energiya bir organizmdan ikkinchisiga o'tib turadi. Yashil o'simliklar tomonidan fotosintez jarayonida to'plangan energiya biotsenoz vakillarida 5—6 bo'g'in orqali o'tadi. Boshlang'ich energiyaning ana shunday bo'g'inlar orqali o'tish qatorlari ozuqa zanjiri deb ataladi. Ozuqa zanjiridagi har bir bo'g'inning o'zni trofik daraja deb qaraladi. Birinchi trofik daraja har doim produsentlardir. O'txo'r konsumentlar II trofik darajaga mansub; o'laksaxo'rlar, ya'ni o'txo'r hayvonlar hisobiga yashovchi organizmlar III trofik darajani tashkil etsa, o'laksaxo'rlar bilan oziqlanuvchi turlar IV trofik darajani tashkil etadi va hokazo. Trofik zanjirlar fotosintez qiluvchi organizmdan boshlangan sarflanish zanjiri deb ataladi. Agarda ozuqa zanjiri o'simlik qoldiqlari, hayvon jasadlari va chirindilardan boshlansa detrit (parchalanish) zanjiri deb ataladi. Shunday qilib, ekotizimlarda doimo trofik darajadagi bir bo'g'indan ikkinchisiga to'xtovsiz energiya oqimi o'tib turadi.

Material va jihozlar. O'rmon jamoasi tasvirlangan jadvallar, ozuqa zanjirlarining turlari, sxemasi, o'quv qo'llanmalar.

Ishni bajarish tartibi. Quyida o'rmon biogeotsenozi misolida berilgan ma'lumotlardan foydalanib, oddiy, ya'ni 3 bo'g'inli va murakkabroq, ya'ni 5—6 bo'g'inli sarflanish turidagi ozuqa zanjirlarining sxemasini chizing. Shuningdek, detrit ozuqa zanjiri turini o'simlik qoldiqlaridan boshlab 4—5 bo'g'inga etkazing. Tuzilgan ozuqa zanjirida I,II,III tartibdagi konsumentlarni aniqlang.

O'rmonda daraxtlar, butalar va o't o'simliklar, yani organik moddaga boy bo'lgan o'simliklarning ko'pligidan u yerda qushlar va sut emizuvchilardan tortib hasharotgacha bo'lgan turli – tuman turlar yashaydi.

Ular bir muhitda jamoa bo'lib yashashi bilan birga biri ikkinchisiga, ikkinchisi esa, uchunchisiga ozuqa sifatida xizmat qiladi. Sut emizuvchi o'rtasida o'txo'r sichqonsimon kemiruvchilar, tovushqonlar, tuyoqlilar, yirtqich hayvonlarga yem bo'ladi va ozuqa zanjirida boshqa bir shahobchani hosil qiladi.

Umurtqalilarning hamma turlari tashqi tekinxo'rlar (aso hasharotlar, kanalar) va ichki tekinxo'rlar (chuvalchanglar, bakteriyalar) uchun yashash muhiti va ozuqa manbai bo'lib xizmat qiladi.

Navbatdagi vazifa cho'l jamoasidagi turlarning quyida keltirgan ro'yxatidan foydalanib, turlarning ozuqa zanjirlaridagi bog'lanish sxemasini tuzing. Sxemada har bir turning ro'yxatdagi tartib soni, doira yoki to'g'ri to'trburchak ichiga olinib strelkalarning yo'nalishi o'ljadan yirtqichga, ya'ni ozuqadan uni iste'mol qiluvchi tomonga yo'naltirilsin.

13-jadval

- | | |
|---------------------------|----------------------|
| 1. Tuvaloq | 14.Bo'ri |
| 2. Kaltakesaklar, ilonlar | 15.Ukki |
| 3. Ko'rsichqon | 16.Tiqratikan |
| 4. CHo'l gekkoni | 17.Hasharotlar |
| 5. Hasharot | 18.Voha o'simliklari |
| 6. CHo'l o'simliklari | 19.Suv |
| 7. Lolalar | 20.Bo'ktargi |
| 8. Qo'shoyoqlar | 21.Sayroqi qushcha |
| 9. Boyo'g'li | 22.Moyqutlar |
| 10.Konek | 23.Baliqchi qushlar |
| 11.CHo'l moyquti | 24.G'ozlar |
| 12.Turg'aylar | 25.Itbaliqlar |
| 13.Quyonlar | |

Bilimlarni tekshirish uchun savollar:

1. Trofik daraja deb nimaga aytiladi?
2. Ozuqa zanjiri deb nimaga aytiladi?
3. Biotsenozda qanday ozuqa zanjirlari mavjuz?
4. Detrit va sarflanish zanjirlarining farqini tushuntiring.

17-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

SUKSESSION QATORLAR

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. Muayyan hudud-dagi (biotopdagi) biotsenozlarning biri ikkinchi bilan almashinishi suksessiya deyiladi. Suksessiyalar tashqi muhit omillari yoki biotsenozning ichki qarama-qarshiliklari asosida, ayniqsa keyingi vaqtlarda antropogen omillar ta'sirida kelib chiqmoqda. Jamoaning asta-sekin o'zgarishlari natijasida bir jamoa ikkinchi bilan almashinadi. Bunday o'zgarishlar sababi jamoaning uzoq vaqt davomida tashqaridan ma'lum bir yo'nalishdagi omilning ta'siri natijasidir. Biotsenozlardagi bunday almashinish ekzogenetik almashinish deb ataladi.

Agar jamoaning tuzilishi soddalashib turlar tarkibi va hosildorlik kamayib ketsa degression almashinish kelib chiqadi. Endogenetik almashinishlar jamoaning ichidagi o'zgarishlar natijasida paydo bo'ladi. Agar jamoa hayot yo'q joyda rivojlana boshlansa birlamchi suksessiya deb ataladi. Bir jamoaning ikkinchisi bilan almashinishi esa ikkilamchi suksessiya hisoblanib, bu yashash sharoitining keskin o'zgarishi, yoki jamoa tarkibida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lishi natijasida kelib chiqadi.

Material va jihozlar. Suksessiyaga oid oquv qo'llanmalari, jadval va sxemalar.

Ishni bajarish tartibi. Jamoalarning boshlang'ich holatdan (dastlabki bosqichdan) muvozanatlashgan (klimaks) bosqichgacha o'zgarishlarini kuzatish juda uzoq vaqtni talab qiladi. Shuning uchun quyida tuqay fitotsenozida tabiiy sharoitda kuzatiladigan suksession o'zgarishlarni bayon etamiz. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, jamoadagi suksessiyalarning birlamchi yoki ikkilamchi ekanligini, jamoalarning o'zgarishdagi tashqi va ichki omillarining ta'siri qanday ta'sir qilinishi, shningdek inson ta'siri qay darajada ushbu

o'zgarishlarga ta'sir etishini aniqlang. Nihoyat, klimaks bosqichga boruvchi jamoalar seriyalarini yoki qatorlarini tuzish bilan ishni yakunlang.

To'qayzor deyilganda daryo bo'ylari va uning yon atroflarida o'suvchi daraxt, buta va o'tlardan tashkil topgan o'simliklar jamoasi tushiniladi. To'qaylar ilgari turang'il, chakanda, tol, qisman jiyda kabi turlardan iborat daraxtzorlar va chakalakzorlardan iborat edi. Hozirgi vaqtda u yerlarda butasimon tollar, yulg'unlar va na'mataklar ham uchraydi. O't o'simliklardan dominant turlar sifatida liliya, qiyog, qalami, va erkakqamish hamda bir yillik efemer boshog'li o'tlar o'sadi. To'qaylarning turlar tarkibi o'zgarib turadi va bir guruh o'simliklar ikkinchi guruh bilan almashadi. Dastlab to'qaylar daryo bo'ylarida suv sathining pasayishi natijasida tol, yulg'un va turang'il kabi turlar o'sa boshlashi bilan vujudga keladi. Erta bahorda daryo suvi suyuq loyqa massa hosil qilib oqqanda shamol yordamida uchib kelgan urug' va mevalarning unishi kuzatiladi. Odatda, birinchi navbatda, soxta qamish, qamish, qog'a, kendir, ilonchirmoviq, turang'il, tol va yulg'un kabilar o'sa boshlaydi. Keyinchalik o't o'simliklarining qo'shilib o'sishi natijasida changalzorlar vujudga keladi. Suv va boshqa omillar orqali jiyda va ching'il kabi tikanli o'simliklar jamoaga kelib qo'shiladi. Oradan 20—30 yil o'tgach o't o'simliklar yo'qolib ketadi. 30—40 yillardan ketin esa daraxtlar quriy boshlaydi. Tuproqning harorat va suv rejimi o'zgaradi. Yer ostki suvlari yuqorida tez ko'tarilib, uning sho'rlanishini vujudga keltiradi. Ochiq joylarda endi yantoq, tuyatovon, ajriq, erkakqamish, kelin supirgi, qorabargo't. Qiyog va boshqa yangi turlar o'sa boshlaydi. Daraxtlar qurub qolsa, yulg'un va ching'il kabi o'simliklar yaxshi o'sadi. Tuproq sho'rlanishining ortib borishi bilan ching'il va yulg'unlar ham yo'qola boshlaydi. Shu vaqtga kelib o't o'simliklarning turlari ham yo'qolib, yalangoch sho'rxok yerlar paydo bo'ladi. Ushbu jarayonlar suv bosishi yoki qaytishi hamda inson faoliyati ta'sirida o'zgarishi mumkin.

Pichan ivitmasidagi soda hayvonlar suksessiyalarini kuzatish

Material va jihozlar. Mikroskop, buyum va qoplagich oynalar, tomizgich, kimyoviy stakan, turli muddatlarda tayyorlangan pichan solingan stakanlar, stakanlarni artish uchun yumshoq mato.

Pichan ivitmasida soda hayvonlar suksessiyalarini kuzatish juda qulay. Buning uchun quruq o'tlardan (dukkakli va har xil o'tlar) suvli stakanga solinib, u 10—15 daqiqa qaynatiladi. So'ngra suyuqlik kimyoviy stakanlarga solinib, 2—3 kun suyuqlik yuzasida yupqa parda hosil bo'lguncha saqlab qo'yiladi. Suyuqlikka sodda hayvonlar ko'payishi uchun ko'lmak suvidan yoki

akvariumdan 1—2 ml quyiladi. Mashg'ulot uchun pichan ivitmasi 2,3,5,7, 14, 30 va 60 kunlik muddatlarda tayyorlanadi. Namunalar yorug'lik yetarli tushadigan joyda, xona haroratida saqlanadi. Stakanning turli qismlarida, ya'ni parda ostida, stakan devorlarida, markazida va tubida sodda hayvonlarning har xil turlari joylashadi. Shuning uchun suyuqlik tomchilaridan bunga alohida e'tibor berish kerak. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, tajribada suksessiyaning barcha ko'rinishlari yaxshi natija bermasligi ham mumkin.

Ishni bajarish tartibi. Stakandagi suyuqlikdan 1—2 tomchini buyum oynasiga tomizib, qoplagich oyna bilan yopib turli muddatdagi pichan ekinini tartib bilan mikroskopning kichik obektivida kuzating. Turli stakanlarda sodda hayvonlarning tarqalish xususiyatlarini aniqlang. Mikroskopning katta obektivida kuzatishni davom ettiring jadvallar yordamida sodda hayvonlar turlarini aniqlang. Ularning har birini va mayda ko'p hujayrali hayvonlarning mo'lligini baholang. Stakanning har xil qismlaridan olingan sonlarini taqqoslang, ball hisobida ifodalang. Buning uchun quyidagicha ish yuritiladi: juda ko'p bo'lsa -5 ball, ko'p bo'lsa -4, o'rtacha bo'lsa -3, kam bo'lsa -2, juda kamiga -1 ball beriladi. Olingan natijalar jadvalga qayd etiladi (14-jadval).

Ishni dominantlik qiluvchi sodda hayvonlar turning almashinishini chizish va uni G.F.Gauze grafigiga ko'ra taqqoslash bilan yakunlang.

Pichandagi turli guruhlariga kiruvchi sodda hayvonlarning mo'lligini o'rganish

14-jadval

Guruhlar	Turli muddatlardagi namunalar, ballar						
	1	3	5	7	14	30	60

Bilimlarni tekshirish uchun savollar:

1. Suksessiya deb nimaga aytiladi?
2. Jamoadagi o'zgarishlar qanday turlarga ajratiladi?
3. Fluktatsion o'zgarishlarga misol keltiring?
4. Birlamchi va ikkilamchi suksessiyalarga misol keltiring?

18-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

O'ZBEKISTONDAGI QO'RIQXONALAR

Mashg'ulotni bajarish uchun uslubiy ko'rsatma: Qo'riqxonalar turi va soni kamayib ketayotgan hayvonlarni muhofaza qilish va qayta tiklashda juda kata rol o'ynaydi. Chunki qo'riqxonalarda ma'lum tabiiy maydonlarda tabiat komponentlarini, asosan, hayvonlarni tabiiy holicha saqlab qolishda yoki insonning ta'siri natijasida turi va soni kamayib ketgan hamda kamayib ketayotgan hayvonlar (**tuvaloq, suvsar, qunduz, xongul, bug'u, oq qo'ton, chipor bug'u, maral** va boshqalar) ko'paytirilib, so'ngra tabiat qo'yniga yuboriladi. Bundan tashqari, qo'riqxonalarda noyob hayvonlar seleksiyasini yaxshilash maqsadida ularning yashash sharoitlari va biologiyasi o'rganiladi, biotexnik tadbirlar amalga oshirilib, ularga qo'shimcha ravishda qishki ozuqa tayyorlanadi, in va uya qurishlari uchun joylar ajratiladi, ov qilish ta'qiqlanadi va oqibatda hayvonlar tez ko'payib, ularning soni qayta tiklanadi.

Material va jihozlar. O'zbekistondagi qo'riqxonalar xaritasi, jadvallar, o'quv qo'llanmalari.

Ishni bajarish tartibi. Xaritadan foydalanib, qo'riqxonalarning qaysi viloyat hududida joylashganligi, o'quv qo'llanmalar asosida qo'riqxonalarning nomi, tashkil qilingan yili, ulardagi muhofaza qilinadigan va o'rganiladigan asosiy o'simlik hamda hayvon turlarini aniqlang. Olingan ma'lumotlarni quyidagi jadvalga qayd eting (15 jadval).

Respublikamiz hududidagi qo'riqxonalar

15-jadval

№	Nomi	Tashkil qilingan yili	Qaysi viloyat hududida joylashishi	Qo'riqxona maydoni (ga hisobida)	Muhofaza qilinadigan va o'rganiladigan asosiy o'simlik va
---	------	-----------------------	------------------------------------	----------------------------------	---

					hayvon turlari

Bilimlarni tekshirish uchun savollar:

1. Qo'riqxonaga deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbekistonda qanday tipli qo'riqxonalar mavjud?
3. Qizil kitobga kiritiladigan turlar qaysi toifalarga ajratiladi?
4. O'zbekiston "Qizil kitobi"ga qanday o'simlik va hayvon turi kiritilgan?

19-LABORATORIYA MASHG'ULOTI

ATROF-MUHITNING EKOLOGIK HOLATINI O'RGANISH

Mashg'ulotning maqsadi. Talabalarni mahalliy atrof-muhit muammosiga jalb qilish va aholining ushbu muammoga munosabatini tiklash.

Mashg'ulotning borishi. Talabalar bir necha kichik guruhchalarga bo'linadilar. Har bir talaba uchun universitet atrofi yoki mikrorayonning xarita sxemasi beriladi. O'qituvchi har bir guruh uchun mahalliy atrof-muhitdan ma'lum maydonni ajratib olishni taklif etadi. Mashg'ulotni boshlashdan avval talabalarni atrof-muhitning asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi. Hozir biz sayohatga chiqamiz. Siz iloji boricha o'zingiz bo'lgan joyni ekologik holatini o'rganib, uni inson hayotiga qanday ta'sir etayotganligini tahlil etishga harakat qiling.

Xaritada atrof-muhitning ayrim holatlarini tavsiflovchi har xil belgilarni tushirishingiz mumkin.

Siz aniqlagan mahalliy atrof-muhit muammolari haqida turli yoshdagi insonlardan so'rab, ularni tashvishlantiruvchi masalalarni o'rganing. Nihoyat mahalliy axborot vositalari ma'lumotlari bilan o'z ishlaringiz natijasini taqqoslang.

1. Umurtqali hayvonlar hayotini o'rganishga doir avtoekologik kuzatish olib boring.
2. Suv havzalarida tarqalgan gidrobiontlarning ekologik guruhlari bo'yicha aniqlang va bu ma'lumotlarni jadvalga tushiring.

Turli tipdagi suv havzalarida tarqalgan gidrobiontlarni aniqlash

16-jadval

Gidrobiontlar	Suv muhiti (lentik, lotik)	Hayvon nomi
Planktonlar		

Nektonlar		
Bentoslar		
Perefitonlar		
Neystonlar		

1-ILOVA

EKOLOGIK TADQIQOTLARNING BA’ZI USULLARI

I. Tashqi muhitning asosiy omillarini o’lchash uslubi

Tashqi muhitning asosiy omillari bo’lmish tuproq , relef va iqlim (suv , namlik, harorat, yorug’lik va shamol) kabilar biror –bir organizmning ekologiyasini o’rganishda biotik omillar bilan bir qatorda e’tiborga olinishi kerak bo’lgan abiotik ma’lumotlar hisoblanadi. Tuproq omillari o’zining tuzilishi va kimyoviy tarkibi bilan farqlanadi. Shuning uchun tuproqning namligi, organing moddasi , gumumsi, kislarod, miqdori, qattiq, jismlarning nisbati vat tuproqning pH ko’rsatgichi kabi xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Tuproq, namunasi maxsus kavlagichlar yordamida qatlamlar bo’yicha olinib, uning tuzilishi haqida umumiy xulosa chiqarish hamda ayrim xususiyatlarini tahlil qilish mumkin .

Tuproq namligini aniqlash uslubi:

1. Alyuminiy satakanchalar tarozida tortilib, uning vazni yozib qoyiladi .
2. Satakanchalarga tuproq, namunalari solinib, ular tarozida yana tortiladi hamda tuproq, namunasi bilan birgalikda vazni yoib qoyiladi (B)
3. Stakanchalar tuproq namunalari bilan birga quritgich shkafda 24 –soat davomida 110 C haqoratda quritiladi.
4. Bir sutkadan so’ng stakanchalar olinib ekskatorlarda sovutiladi
5. Sovigan idishlar tortilib, ularning vazni yozib qoyiladi.
6. Tortilgan idishlar yana bir sutka davomida 100C qizdirilgan quritkich shkafda saqlanadi.
7. Namunalarning vazni doimiy holatga kelguncha (c) ushbu jarayon bir necha marta takrorlanadi,
8. Natija quyidagi formula asosida hisoblab chiqiladi :

$$B-c \text{ } b-a \text{ } \times 100$$

II. Tuproqdagi organikik moddalar miqdorini aniqlash uslubi ham yuqorida tuproqning namlik miqdorini aniqlash uslubiga o'xshash bo'lib, bunda tuproq, namunalarini tigel idishlarga solinib qizdiriladi va yuqoridagi tartibda tortish, sovitish va boshqa jarayonlar amalga oshirib formula asosida, foiz miqdori hisoblab chiqariladi .

III. Tuproq namunalaridagi kislarod miqdorini aniqlash uslubi:

1. Bo'sh banka idishini 500 sm² hajmli stakanga tushirib , unga suv to'ldiriladi va stakandag isuv satxi belgilab qo'yiladi .
2. Bankadagi suv hajmi o'lchov silindiri yordamida aniqlanadi (a), stakandagi suv sathi bankadagi suv miqdoriga barobar hajmda pasayadi
3. Bankaning tubida taxminan 8 ta kichik teshikchalar ochiladi.
4. Bankaning og'zini tuproqqa botirib (teshikchalardan tuproq chiqquncha) bankaning asta – sekin tuproqdan chiqarib olib og'zidan ortiqcha tuproqlar olib tashlanadi.
5. Bankadan qaytadan suv solingan stakanga tushirib, tuproqni biroz silkitilsa ichidagi havo chiqib ketadi .
6. Stakandagi suv satxi avvallgi holatdan pasayadi, chunki suvning bir qismi tuproqdagi havo o'rnini egallaydi.
7. 100sm² hajmli o'lchov silindiri yordamida stakandagi suv sathi avvalgi holatga kelguncha suv quyilib uning hajmi yozib qo'yiladi(B).
8. Tuproqdagi kislarod miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi:
$$\frac{B}{a} \times 100$$
9. Ushbu jarayn turli rayonlardan olingan tuproq namunalarida takrorlanishi kerak.

IV. Tuproqdagi qattiq zarrachalarni taxminiy nisbatini aniqlash

1. Tuproq, namunalarini o'lchanib silindirga solinib ustiga suv quyiladi.
2. Tuproq bilan suv yaxshilab aralashtiriladi.
3. Aralashmani 48 soat tindirib qo'yiladi.
4. Tuproq namunasidagi turli fraksiyalarning hajmi aniqlanadi.

V. Tuproq namunasining pH ko'rsatkichini aniqlash uslubi.

1. Probirkaga 1 sm³ tuproq va shuncha miqdorda bariy sulfat qo'shib kuzatilganda kolloid loyqa probirka tubiga pag'a-pag'a bo'lib cho'kadi.

2. Unga 10sm^3 distillangan suv va 5sm^3 universal indikator qo'yiladi. Probirkaning og'zini po'kak yordamida berkitib yaxshilab silkitiladi, so'ngra tindiriladi.
3. Probirkadagi suyuqlik rangini etalon ranglar bilan taqqoslab unga mos keladigan pH ko'rsatkichi aniqlanadi.

Iqlim omillari.

Suv, havo va yorug'lik kabilar eng muhim iqlim omillari hisoblanadi.

V. Suvning pH ko'rsatkichini aniqlash uslubi.

1. Tekshirilayotgan suvga universal indikator qog'ozi tushiriladi va uning rangini etalon ranglar shkalasiga taqqoslanadi, natijada suvning pH qiymati topiladi.
2. pH-metrning zondini distillangan suv yordamida chiqab, tekshirilayotgan suvga zond tushiriladi va pH-metrdagi ko'rsatilgan qiymat yozib olinadi

VI. Suvning taxminiy sho'rlanish darajasini aniqlash uslubi

1. Tekshirilayotgan suvdan 10 sm^3 hajmda konussimon kolbaga olib, unga ikki tomchi kaliy xromat indikator eritmasi quyiladi.
2. Kumush nitrat eritmasi bilan namuna titrlanadi.
3. Titrlash oxirida kumush xlorid cho'kmasi qizil rangga bo'yaladi.
4. Tekshirilayotgan 10sm^3 hajmdagi suv yana titrlanadi. Titrlash uchun o'rtacha sarf bo'lgan kumush nitrat eritmasining miqdori taxminan suvdagi xloridlar miqdoriga tengdir.

VII. Suvdagi kislorod miqdorini aniqlash uslubi

1. Shisha bankaga yoki butilkaga suv solib, unga havo kirib qolmasligi uchun suv tagida saqlanadi.
2. Suv namunasiga pipetka yordamida 2sm^3 marganes xlorid va shuncha miqdorda yodning ishqorli eritmasidan qo'shiladi. Bunda pipetkaning uchi butilka tubiga tegib turishi kerak. Natijada suvdan biroz og'ir bo'lgan eritma butilkadan teng hajmdagi suvni siqib chiqaradi.
3. Xlorid kislotasidan 2sm^3 qo'shib butilkaning og'zi berkitiladi. Cho'kmaning erib ketishi uchun butilka yaxshilab silkitiladi. Natijada kaliy yodidning ortiqcha eritmasi hosil bo'ladi. Endi suvdagi kislorod miqdori hisobga olinadi.
4. Tekshirish uchun konussimon kolbaga 50sm^3 suvdan olib, uni $0,01\text{ M}$ natriy tiosulfat eritmasi bilan titrlanadi. Avval kolbani chayqatib turgan

holda sariq rang yo`qolguncha tiosulfat eritmasidan qo`shib boriladi, keyin uch tomchi kraxmal eritmasidan qo`shib titrlashni davom ettiriladi, bunda kraxmalning to`q havo ranggi yo`qolishi kerak. Natriy tiosulfatning sarf bo`lgan hajmi yozib olinadi.

5. Titrlash ikki marta takrorlanadi. Har galgi titrlash uchun 50sm³ tekshirilayotgan suvdan olinadi. Titrlash uchun sarf bo`lgan o`rtacha (x) natriy tiosulfat eritmasining hajmi hisoblab chiqiladi.
6. 0,01 M tiosulfatning 1sm³ hajmi (normal sharoitda) 0,056sm³ kislorodning miqdoriga teng keladi. 1 l suvdagi kislorodning miqdorini quyidagi formula bo`yicha aniqlanadi: normal sharoitda kislorodning

$$\frac{0,056x - 1000}{50}$$

miqdori x-50 sm³ suvni titrlash uchun sarflanadigan tiosulfatning hajmi

IX. Suvning oqish tezligi ham oddiy usulda suvda qalqib turuvchi biror narsani ma`lum bir masofaga oqib borishi uchun ketgan vaqt bilan aniqlanadi.

X. Havoning nisbiy namligini aniqlash uslubi

Havoning nisbiy namligi haroratning o`zgarishi bilan o`zgarib turadi. Uni o`lchash uchun psixrometr asbobidan foydalaniladi. Psixrometr metal yoki yog`och ramaga mahkamlangan nam va quruq termometrlardan iborat. Termometrlarning ko`rsatishiga qarab maxsus psixrometr jadvallar yordamida havoning nisbiy namligi foiz miqdorida hisoblab chiqariladi. Havova tuproqning haroratini simobli termometrlar bilan o`lchash mumkin, ammo ekologik tadqiqotlarda ayni joydagi yoki ayni vaqtdagi harorat kata ahamiyatga ega. Shuning uchun harorat sutkaning har xil vaqtlari hamda mavsumiy davrlarida maksimal va minimal termometrlar yordamida aniqlanadi. Ayrim organlar ayniqsa, o`simlik tanasi, barglari haroratini o`lchashda termostorlardan foydalaniladi. Ular ancha qulay va ixcham elektr asboblardir.

Ekologik kuzatishlar uchun shamolning esish chastotasi, kuchi va yo`nalishi aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ammo ko`pchilik holatda anemometrlar ko`rsatgan shamolning yo`nalishi va tezligi bilan cheklaniladi.

XI. Populyatsiyalarning sonini baholash usullari.

Populyatsiyalarning o`lchamini bevosita baholash uchun quyidagi kvadrat, kuzatish va suratga olish usullari qo`llanadi. Bilvosita usullariga esa ajratib olish, halqalash, qayta tutish (ovlash) kabilar kiradi.

Kvadrat usuli. Ma`lum tur yashayotgan joy bir necha sondagi kvadrat maydonchalarga bo`lib tashlanadi. Keyinchalik tanlab olingan kavdratdagi

organizmlar soni hisobga olinib, ularni ushbu maydondagi kvadratlar soniga ko'paytirib organizmlarning umumiy soni aniqlanadi.

Kuzatish usuli. Individlarni hisoblashda ushbu uslub o'troq yoki sekin harakatlanuvchi hayvonlar, shuningdek yirik hayvonlar uchun tavsiya etiladi. Masalan, tunash joylarini tashlab ketayotgan vaqtda ularni hisobga olish ham mumkin. Fotosuratlardan foydalanib, kata maydonlarga to'planadigan yirik sut emizuvchilar va qushlar Populyatsiyalarining o'lchami va individlarini hisobga olish ham mumkin.

Ajratib olish. Ushbu usul mayda organizmlarining sonini baholash uchun qulay. Masalan, ma'lum suv havzasi yoki maydondagi uchraydigan hasharotlarni hisobga olish mumkin. Hayvonlar maxsus turlar yordamida tutilib, ularning soni qayd etiladi hamda tajriba tugagunga qadar ushlab turiladi. Hayvonlarni tutish uch marta takrorlanadi. Har bir taror ushlabda ularning soni kamayib boradi. Navbatdagi vazifa har bir tutish natijasidagi hayvonlar sonini aniqlab, so'ngra umumiy tutilgan hayvonlar sonini grafik ravishda ifodalash bilan yakunlanadi.

XII. Tekshirilayotgan maydonda namunalarni yig'ish usuli.

Ma'lum bir ekotizimning abiotik va biotik tarkibiy qismlarini tekshirish uchun odatda, transektlar yoki kvadratlardan foydalanib, u yerdagi namunalar yig'iladi.

Chiziqli transekt bir xil maydonlardan namuna yig'ish uchun foydalaniladi. Ko'pincha tekshirilayotgan maydonda populyatsiyalarning yashash joylari biri ikkinchisi bilan almashinadigan holatlarda yaxshi natija beradi. Yer yuzasiga qoqilgan ikkita qoziq oraligi'dagi chizimcha yoki arqon transektning holatini bildiradi.

Lentali transekt ikkita chiziqli transekt orasidagi o'rganiladigan maydon bo'lib, turlarni hisobga olish uchun 0,5m yoki 1,0 m maydon ajratiladi. Tekshirilayotgan ham jamoaning miqdor va sifat jihatidan ishonchli ma'lumotlar olish uchun chiziqli va kvadrat ramkalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kvadrat ramka metal yoki yog'ochdan yasalgan, o'lchami 025 m² yoki 1m² maydonchani chegaralovchi yig'ma asbobdir. Ramkani transektning bir tomoniga tashlab maydoncha tekshiriladi. Keyin chiziqli transekt bo'ylab ikkinchi bir namuna maydonchasiga tashlanadi. Tekshirish xarakteriga qarab, ramka ichidagi turlar ro'yxatga olinadi va ularning miqdori baholanadi.

Kegayli ramka bir necha katakchalarga ega bo'lgan va katakchalardan sim (kegay) tushirish mumkin bo'lgan ramka. Ushbu usuldan tekshirilayotgan joyda o'simliklar juda zich o'sayotgan bo'lsa, foydalanish ancha qulay bo'ladi. Har bir

katakchalardan sim tushirilib simga tegib turgan turlarning barchasi hisobga olinadi.

Doimiy kvadrat. Uzoq muddatli ekologik tadqiqotlarda, ya'ni hamjamiolarning almashinishlarida (suktsessiyalar) yoki mavsumiy o'zgarishlar doimiy kvadrat yoki transektlar yordamida o'rganiladi. Qoziqlar yordamida chegaralangan maydonchada abiotik va biotik omillar ma'lum muddatlarda tekshiribturiladi. Tekshirish natijasida o'zgarishlarning yo'nalishlari va ularni keltirib chiqargan omillar aniqlanadi.

XIII. Hamjamiolarni tasvirlash

Ma'lum geografik hududdagi ekotizim o'rganilayotganda uning abiotik va biotik tarkibi hamda bir necha yashash joylarining turlari hisobga olinadi. Agarda to'qay yoki yong'oqzor o'rmoni o'rganilayotgan bo'lsa, unda bir necha tur o'simliklar va hayvonlar yashaydi.

Hamjamiolarni tasvirlash uchun quyidagilar zarur:

